



ANDIJAN STATE
UNIVERSITY



DOI 10.26739/conf_20/05/2020_4

MATERIALS

OF THE INTERNATIONAL
ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON

MODERN INFORMATICS AND ITS TEACHING METHODS (MITM2020)

SECTION IV.
THE ROLE OF INFORMATION AND
COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN
PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

PART - 4



ANDIJAN
UZBEKISTAN

2020

Modern informatics and its teaching methods (MITM2020) [Electronic resource]: collection of materials of the international scientific-practical conference. - Andijan, May 20, 2020. Section IV. The role of information and communication technologies in preschool educational institutions DOI 10.26739/conf_20/05/2020_4

The collection includes abstracts of the international scientific-practical conference "Modern informatics and its teaching methods (MITM2020)", which was held on May 20, 2020 in Andijan.

The international scientific-practical online-Internet conference includes scientific theses in the field of education, which includes the achievements of modern computer science and its teaching methods.

The conference was divided into four sections:

- modern methods of teaching informatics in high and medium education;
- modern informatics and management;
- methods and algorithms for processing information;
- the role of information and communication technologies in preschool education.

Abstracts are published in the original edition (with corrections and revisions). Authors of published materials are responsible for the accuracy of the information, quotes and information. Their opinion may not coincide with the opinion of the editorial board.

Conference Chair

- Prof.: Yuldashev S.Akramjon** - Andijan state University, Uzbekistan
Academician Zaynobiddinov S.Sirojiddin - Andijan state University, Uzbekistan
Prof.: Chen Xiaohui - Northeast Normal University, Changchun, Jilin, China
Prof.: Rasulov M.Akbarali - Fergana branch of Tashkent State University of Information Texnologies
Prof.: Rasulov M.Baxiyor - Andijan state University, Uzbekistan
Prof.: Aliyev U.Rayimjon - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Maxkamov K.Madaminjon - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Medatov A. Asilbek - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Tazhibayev O. Gayrat - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Ahmadaliev Q.Doniyorbek - Northeast Normal University, Changchun, Jilin, China
Kadirova A.Lola - Andijan state University, Uzbekistan

Editor in Chief

- Prof., Zaynidinov N. Hakimjon** - Tashkent State University of Information Texnologies, Uzbekistan
Prof., Djumanov Kh.Jamoljon - Tashkent State University of Information Texnologies, Uzbekistan
PhD: Maxkamov K.Madaminjon - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Medatov A. Asilbek - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Tazhibayev O. Gayrat - Andijan state University, Uzbekistan
PhD: Axmadaliev K.Doniyor - Northeast Normal University, Changchun, Jilin, China

Conference Co-Chair

- Muhammad J. Sajid** - Xuzhou University of Technology, China

SECTION IV. THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ БИЛИШ ЖАРАЁНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АКТ ЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Медатов А.А., Махкамов А.Ш. Андижон давлат университети,
Ўзбекистон*

Аннотация. Мақолада мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларнинг билиш жараёнини ривожлантиришда АКТ ва дастурий воситалардан фойдаланиш имкониятлари ёритилган.

Калим сўзлар: Ахборот, рақамли технологиялар, дастурий восита, ДТС.

Аннотация. В статье рассмотрены возможности использования ИКТ и программных продуктов в процессе совершенствование знаний воспитанников дошкольного образования.

Ключевые слова: Информация, цифровая технология, программный продукт, ГОС.

Annotation. The article discusses the possibilities of using ICT and software products in the process of improving the knowledge of pupils of preschool education.

Keywords: Information, digital technology, software product, SES

Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) таълимнинг барча бўғинларини, жумладан мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларининг таълим, тарбия жараёнларини ҳам қамраб олмоқда. Болаларнинг билимлар дунёсига илк қадами мактабгача таълим муассасалари (МТМ)дан бошланади. МТМ нинг таълим-тарбия жараёнида АКТ ларнинг тадбиқ қилиниши масаласи ўрганиш ҳозирги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирининг 2018 йил, 18 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талабларини тасдиқлаш ҳақида” ги 1-мh-сонли буйруғи билан тасдиқланган Давлат талабларининг асосий вазибаларидан бири “таълим-тарбия жараёнига педагогик ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш”дан иборатлиги кўрсатиб ўтилган [1]. МТМ дастурларининг тубдан қайта кўриб чиқилиши тарбиячи-педагоглардан таълим жараёнида АКТ лардан кенг кўламда фойдаланиш масаласига эътиборни кучайтиришларини, ишлаб чиқарилаётган дастурий воситалардан самарали фойдаланишларини тақазо этади.

6-7 ёшли болаларни МТМ га тўла қамраб олинмаганлиги оналарнинг ўз фарзандларини мактабга тайёрлашдаги масъулиятини

кучайтиришларини талаб қилади. Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг Олий мажлис депутатларига мурожаатномасида “... мактабгача таълим билан камраб олиш даражаси бир йил давомида 38 фойиздан 52 фойизга кўтарилди” деб таъкидлаб ўтганлиги МТМ га бўлган эътибор бундан кейин жадал суръатлари билан кучайтирилиши, тарбиячи-педагоглардан касбий педагогик маҳоратини янада оширишларига ундайди [3]. Айниқса рақамли технологияларнинг имкониятларининг кенгайгани, МТМ тарбияланувчилар учун турли мавзуларни ўзлаштирилишига қаратилган дастурий воситаларнинг ишлаб чиқарилаётганлиги ота-оналар ва педагоглардан болаларнинг ёши, физиологик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда дастурий воситалардан фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантиришдан иборат бўлади.

Таълим жараёнида АКТ ва дастурий воситалардан фойдаланиш педагогга:

- машғулот учун ажратилган вақтни тежашга;
- машғулотларни “ўйин” тарзда олиб боришига;
- ўқитишнинг мотивациясини кучайтиришга;
- болаларни турли кўринишдаги фаолият турларига жалб қилиш: фикрлаш, мулоҳаза қилиш, бахслашиш;
- машғулот жараёнида аудио, видео, мультимедия материалларидан фойдаланишга имкон беради.

Болаларга:

- билим олишга, мавзунини ўзлаштирилишини қизиқишини ортишига;
- мустақил равишда ўқиш, санаш ва қўшишни ўрганишга;
- предметлар сонлар орасидаги боғлиқликни тушунишларига;
- атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисаларни тадқиқ қилишлари ва кузатишларига;
- мулоҳаза қилиш ва фикрлаш қобилиятларини ортишига олиб келади.

Бундай талаблар мактабгача таълим муассасанинг Давлат дастури талабларида ҳам кўриб ўтилган.

Ҳозирги вақтда ўзбек тилида МТМ тарбияланувчилари учун мўлжалланган дастурий воситалар жуда кам бўлиб, улардан бевосита таълим жараёнида фойдаланиб бўлмайди. Ўқиш ва ёзишни тўла ўзлаштирамаган болалар учун дастурий воситаларни ишлаб чиқишда, албатта ДТС ва давлат дастурларини тўла кўриб чиққан ҳолда, МТМ педагоглари фикрларини ҳам ҳисобга олиш зарурати бор. Лекин, МТМ тарбияланувчилари учун мўлжалланган рус тилидаги жуда кўплаб дастурий воситаларни интернет тизимидан олиш мумкин. Бундай маҳсулотлардан МТМ рус гуруҳларида тўла фойдаланиш мумкин деб ўйлаймиз. МТМ тарбияланувчиси болалари учун дастурий маҳсулотларни ишлаб чиқишда, МТМ ДТС ва таълим дастурларини ўрганиш билан бир қаторда, миллий тилда ўқиш, санаш, ранглар билан ишлаш, уй ва ёввойи ҳайвонлар, сабзавот ва мевалар номларини, мантиқий масалалар, содда геометрик фигуралар, фасллар, рус ва инглиз тилини ўргатишга ва бошқа мавзудаги дастурий маҳсулотларнинг ишлаб чиқилиши ҳозирги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда.

Ҳозирги кунда Андижон давлат университетида МТМ тарбияланувчилари учун дастурий махсулотлар ишлаб чиқиш ва тадбиқ қилиш бўйича гуруҳ шакллантирилган бўлиб, тузилган дастурий воситалар тажрибада синовдан ўтказилмоқда. Бундай дастурий воситалардан бири “Топишмоқ” дастуридир.

Ушбу дастур ўқишни МТМ ва бошланғич синф ўқувчилари учун мўлжалланган бўлиб, бир неча мавзудаги топишмоқларни ўз ичига олган. Дастур ишга туширилиб топишмоқ мавзуси ва сони танланади ва бошлаш бўйруғи танланиб топишмоқни топиш жараёни бошланади. Бунда дастур ойнасининг қуйи ўнг қисмида топишмоқ матни акс этади бироқ тарбияланувчилар ҳали ҳарфларни билмаслиги эътиборга олиниб топишмоқнинг аудио ёзув файли карнай белгиси босилса топишмоқни ўқиб беради. Топишмоқни ўқишда аудио файлдан фойдаланиш ёки тарбиячи ўзи ўқиб бериши ҳам мумкин бўлади. Топишмоқга битта тўғри ва бир нечта нотўғри вариантни ўз ичига олган расмли вариант тақдим этилади. Ушбу вариантлардан бири танланилганда дастлаб вариант номи ўқиб берилади агар тўғри бўлса рағбатлантирувчи “Баракалла” сўзи ёзилган аудио файл ишга туширилади акс ҳолда “Яна бир уриниб кўринг” матни ёзилган аудио файли ишга туширилади. Топишмоқ жавоби топилганда автоматик равишда топишмоқ варианты алмашади. Бу жараён топишмоқлар тугагунига қадар давом этади.

Топишмоқ дастурида дастурини такомиллаштириш имконияти ҳам берилган. Бунда ўқитувчи (фойдаланувчи) кўшимча мавзу тузиши ва мавзуга янги топишмоқлар қўшиш имконияти ҳам берилган. Бу ўз навбатида фойдаланувчига дастур тўпламидаги топишмоқлар сонини мавзуларини кўпайтиришга ва билим соҳасига мослаб янги мавзуларни яратиш имкониятини беради.

Шундай қилиб, таълим жараёнида АКТ ларидан фойдаланиш тарбияланувчиларнинг мулоҳаза қилиш ва фикрлаш қобилиятини ривожлантиришга, олиб борилаётган машғулотларни қизиқарли ташкил қилишда, мустақил равишда билим олишларига кўмаклашади.

Адабиётлар

1. *Ўзбекистон Республикаси Мақтабгача таълим вазирининг 2018 йил, 18 июндаги “Ўзбекистон республикасининг илк ва мақтабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талабларини тасдиқлаш ҳақида”ги 1-тн-сонли буйруғи билан тасдиқланган Давлат талаблари. – Тошкент, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.07.2018-й., 10/18/3032/1450-сон*

2. *“Илк қадам”. Мақтабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. – Т., 2018-59 б.*

3. *Ahmadaliev D. K., Medatov A.A., Jo'rayev M. M., & O'rinov N. T. Adaptive educational hypermedia systems: An overview of current trend of adaptive content representation and sequencing. - International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, Philadelphia, USA. 05.03.2019*

КОМПЬЮТЕРЛИ ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ

*Бегматова Н.Х. Қарши давлат университети,
Содиқова У.У. Қарши авлат университети талабаси, Ўзбекистон*

Аннотация: Мақолада мактабгача таълим муассасаларидаги машғулотлар жараёнида компьютерли дидактик ўйинлардан фойдаланиш имкониятлари баён этилган бўлиб, бу эса машғулотлар жараёнида ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланиш ва шу асосда таълим-тарбия самарадорлигини ошириш имкониятини беради.

Калит сўзлар: компьютер, дидактик, ўйин, тақдимот, инновация, таълим, мультимедиа.

Аннотация: В статье описаны возможности использования компьютерных дидактических игр в дошкольном образовании, что позволяет использовать информационно-коммуникационные технологии в классе и повысить эффективность обучения на этой основе.

Ключевые слова: компьютер, дидактика, игра, презентация, инновация, образование, мультимедиа.

Annotation: The article describes the possibilities of using computer didactic games in preschool education, which allows you to use information and communication technologies in the classroom and increase the effectiveness of education on this basis.

Keywords: computer, didactic, game, presentation, innovation, education, multimedia.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707-сон қарори билан “Мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган дастур” тасдиқланди ва мазкур Дастурнинг асосий мақсадли вазифалари ва йўналишлари қаторида мактабгача таълим сифатини ошириш, мактабгача таълим муассасаларида болаларни мактабга сифатли тайёрлашни тубдан яхшилаш, таълим-тарбия жараёнига жаҳон амалиётида кенг қўлланиладиган замонавий таълим дастурлари ва технологияларини жорий этиш вазифалари белгиланган¹.

Бу вазифадан кўриниб турибдики, мактабгача таълим муассасаларининг таълим-тарбия жараёнида ахборот технологияларини татбиқ этиш,

¹ [Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги "2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2707-сон қарори](#). (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 11-модда, 35-сон, 923-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон)

машғулотлар жараёнида компьютерли дидактик ўйинлардан фойдаланиш, уларни компьютер билан элементар тарзда фойдаланишга ўргатиш ва мактаб таълимига тайёрлаш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири эканлигини кўрсатади.

Маълумки, мактабгача ёшдаги болаларнинг асосий фаолият тури ўйин ҳисобланади. Ўйин орқали болаларда мактабда муваффақиятли билим олиши, янги муҳитга мослашув кўникмалари ривожлантирилади.

Компьютерли ўйинларни бир неча турга ажратиш мумкин. Жумладан:

1. Компьютерли таълимий ўйинлар;
2. Компьютерли ривожлантирувчи ўйинлар;
3. Бошқотирма ўйинлар;
4. Дам олиш ўйинлари;
5. Стол устида ўйналадиган ўйинлар (шахмат, шашка);
6. Ҳарбий машқни кўрсатадиган ўйинлар;
7. Якка кураш, таъқиб, қочиш ўйинлари;
8. Авантюра ўйинлари;
9. Конвейрли ўйинлар;
10. Конструкция (йиғиш) – ҳаракат ўйинлари;
11. Мулоқотли англаш ўйинлари;
12. Ўқув-технологик ўйинлар;
13. Спорт ўйинлари;
14. Бошқарув-иқтисод ўйинлари ва бошқа турлари мавжуд.

МТМ болаларига, айниқса, мактабга тайёрлов гуруҳи болаларига таълимий ва ривожлантирувчи ўйинлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Компьютерли таълимий ўйинлар асосан болаларга таълим бериш, ўрганилган материални такрорлаш ва мустаҳкамлашга қаратилган. Шунингдек, улар ўрганиладиган материалга қизиқиш ўйғотиш ва уни билишга интилиш, ҳавас қилиш вазифаларини ҳам бажаради.

Компьютерли ривожлантирувчи ўйинлар бола тафаккурини ривожлантириш, ақлий фаолиятини ошириш, диққатини барқарорлаштириш, идрокларини фаоллаштириш ва ҳокозоларга қаратилган. Компьютерли ривожлантирувчи ўйинлар мантиқий ўйинлар сарасига киради.

Компьютерли ривожлантирувчи ўйинларига “Қушчани қафасга жойла”, “Лабиринт”, “Тетрис”, “Денди”, “Пазл”, “Фарқини топ” кабилар киради.

Компьютерли дидактик ўйинларнинг катта қисми таълимий-ривожлантирувчи ўйин шаклида бўладилар ҳамда бир вақтнинг ўзида иккита функцияни бажарадилар-болаларга таълим бериш билан бир қаторда, уларнинг фикрлаш ва ақлий қоблятларини ҳам ривожлантирадилар.

Таълимий-ривожлантирувчи ўйинларга “Кимнинг уйи қаерда”, “Шаклларни ўрганамиз”, “Сонини топ”, “Сўз тузиш”, “Фасллар ўйини” ва ҳокозолар кирадилар.

Комплексли ўйинлар. Комплекс шаклидаги компьютерли ўйинлар бир неча мавзу ўрганилгандан кейин амалга оширилади (ўйналади). Комплекс

шаклидаги ўйинларнинг асосий характерли томони шундан иборатки, ушбу ўйинларда илгари ўтилган (ўрганилган) материал такрорланади ва мустаҳкамланади.

Балиқчани аквариумга жойлаштириш ўйини.



Ўйингача бўлган хол

Ўйин жараёни

1-расм. Балиқчани аквариумга жойлаштириш ўйини.(Ўйин натижаси)

Мактабгача таълим муассасаларининг катта ва мактабга тайёрлов гуруҳларида савод чиқариш бўйича “Мевалар номининг биринчи бош ҳарфларидан сўз тузиш” компьютерли ўйинидан фойдаланиш мумкин. Бунинг учун 2-расмда кўрсатилган мультимедиали слайд тайёрланади.



2-расм. Монитор экранида слайдни ва ўйин натижасини кўриниши

Слайд намойишга қўйилганда, монитор экранида дастлаб чапдаги қаторда мевалардан олма, нок сўнгра анор бирин-кетин ҳаракатланиб келиб жойлашадилар ва жилоланиб турадилар (анимация), суҳандоннинг овози эшитилиб туради (аудио самара). Тарбияланувчилар меваларни кўриб турадилар (видео самара). Шундан кейин, монитор экранида, слайднинг ўнг қисмида кўрсатилгандек мевалар номининг биринчи, бош ҳарфларига мос “ОНА” сўзи ёзилади ва мультимедиали самара намоён бўлади.

МТМ тарбиячилари компьютерли дидактик ўйинларни амалга оширишларида қуйидагиларга эътибор беришлари лозим.

1. Бир марталик ўйин (сеанс) 15 дақиқадан ошмаслиги керак
2. Компьютерли ўйинларни бошқа турдаги ўйинлар билан алмаштириб олиб бориш, яъни 15 дақиқа давом этган компьютерли ўйиндан сўнг жисмоний ҳаракатли ўйинга ўтиш.
3. Тарбияланувчиларга жангарилик, зўравонлик ва бошқа номаъқул ўйинларни кўрсатмаслик.
4. Компьютерли ўйинларни малум бир таълим-тарбия йўналиши бўйича ўтказилишини таъминлаш.

5. Компьютерли ўйинларни тарбияланувчиларнинг фикрлаш қобилиятларни ривожлантирилишига қаратилган бўлишига эришиш.
6. Компьютерли ўйинларни тарбияланувчиларни зеҳнларини ва зийракликларини оширишга қаратиш.
7. МТМ тарбиячиларининг ўзлари томонидан компьютерли таълим ва ривожлантирувчи ўйинларни яратишни таъминлаш.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги "2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2707-сон қарори. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 11-модда, 35-сон, 923-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон)
2. Абдуқодиров А.А., Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти (ўқув-услубий қўлланма). – Қарши: Насаф, 2011. –Б.163.
3. Бегматова Н.Х. Методика проведения компьютерных образовательных игр в дошкольных учреждениях // Технологии и методики в образовании. – Воронеж, 2011. - № 3. – С. 3-6.

ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

*Мирзаахмедов М.К. Андижанский государственный университет,
Абдувалиев А.А. Студент Андижанского государственного
университета, Узбекистан*

***Аннотация:** Статья посвящена актуальным вопросам использования информационных технологий в дошкольном образовательном учреждении. Раскрываются основные направления развития ИКТ и области их применения в ДОУ, анализируются условия их эффективности. Доказывается преимущество информационно-коммуникационных технологий перед традиционными средствами обучения дошкольников. Особое внимание уделяется вопросу защиты здоровья ребенка при работе с компьютером.*

***Ключевые слова:** образовательное пространство, дошкольное образование, информационные ресурсы, информационно-коммуникационные технологии, детский сад, интерактивное обучение, игровые технологии.*

***Annotation:** The article is devoted to relevant questions of use of informational technologies in preschool educational institute. The basic directions of development of ICT and the sphere of their implementing in preschool educational institutes are revealed, conditions of their efficiency are analyzed. The advantage of informational and communicational technologies comparing to traditional means of education of preschool children is proved. The attention is paid to the question of health of a child during work with the computer.*

***Key words:** educational space, preschool education, informational resources, informational and communicational technologies, kindergarten, interactive education, game technologies.*

*Если сегодня мы будем учить так,
как учили вчера,
мы украдем у наших детей завтра.
Джон Дьюи*

В соответствии с законом «Об образовании» Республики Узбекистан (1997) дошкольное образование, которое является одним из уровней общего образования, должно соответствовать современным требованиям, предъявляемым к реализации образовательного процесса. Поэтому информатизация в детском саду стала необходимой реальностью.

Компьютеры в школьных классах сегодня уже не воспринимаются как нечто редкое, экзотическое, однако в детском саду они еще не превратились в хорошо освоенный инструмент педагогов. Но с каждым годом современные информационные технологии все активнее входят в жизнь дошкольников.

Поэтому дошкольное образовательное учреждение как носитель культуры и знаний также не может оставаться в стороне: невозможно представить работу педагога ДОО без использования современных информационных ресурсов. Использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) дает возможность обогатить, качественно обновить воспитательно-образовательный процесс в ДОО и повысить его эффективность.

Прежде всего, необходимо четко понимать, что такое ИКТ и в какой конкретно работе в ДОО они необходимы. Словосочетание ИКТ связано с двумя видами технологий: информационными и коммуникационными.

Информационная технология – комплекс методов, способов и средств, обеспечивающих хранение, обработку, передачу и отображение информации и ориентированных на повышение эффективности и производительности труда. На современном этапе методы, способы и средства напрямую взаимосвязаны с компьютером (компьютерные технологии).

Коммуникационные технологии определяют методы, способы и средства взаимодействия человека с внешней средой (обратный процесс также важен). В этих коммуникациях компьютер занимает свое место. Он обеспечивает комфортное, индивидуальное, многообразное, высокоинтеллектуальное взаимодействие объектов коммуникации. Соединяя информационные и коммуникационные технологии, проецируя их на образовательную практику, необходимо отметить, что основной задачей, которая стоит перед их внедрением, является адаптация человека к жизни в информационном обществе.

Информационно-коммуникационные технологии в образовании – это комплекс учебно-методических материалов, технических и инструментальных средств вычислительной техники в учебном процессе, формах и методах их применения для совершенствования деятельности специалистов учреждений образования (администрации, воспитателей, специалистов), а также для образования (развития, диагностики, коррекции) детей. Под ИКТ подразумевается использование компьютера, Интернета, телевизора, видео, DVD, CD, мультимедиа, аудиовизуального оборудования, т.е. всего того, что может представлять широкие возможности для познавательного развития.

У детей дошкольного возраста преобладает наглядно-образное мышление. Главным принципом при организации деятельности детей этого возраста является принцип наглядности. Использование разнообразного иллюстративного материала, как статичного, так и динамического, позволяет педагогам ДОО быстрее достичь намеченной цели во время непосредственной образовательной деятельности и совместной деятельности с детьми.

Грамотное использование современных информационных технологий позволяет сделать образовательный процесс информационно емким, зрелищным и комфортным, существенно повысить мотивацию детей к обучению, воссоздавать реальные предметы или явления в цвете, движении и

звук, что способствует наиболее широкому раскрытию способностей дошкольников, активизации умственной деятельности.

Сегодня ИКТ позволяют:

- показать информацию на экране в игровой форме, что вызывает у детей огромный интерес, так как это отвечает основному виду деятельности дошкольника – игре;

- в доступной форме, ярко, образно преподнести дошкольникам материал, что соответствует их наглядно-образному мышлению;

- привлечь внимание детей движением, звуком, мультипликацией, но не перегружать материал ими;

- способствовать развитию у дошкольников исследовательских способностей, познавательной активности, навыков и талантов;

- поощрять детей при решении проблемных задач и преодолении трудностей. Кроме этого, использование ИКТ в дошкольном образовании дает возможность расширить творческие способности самого педагога, что оказывает положительное влияние на воспитание, обучение и развитие дошкольников.

Можно выделить определенные преимущества использования информационно-коммуникационных технологий по сравнению с традиционными средствами обучения:

1. ИКТ дают возможность расширения использования электронных средств обучения, так как они передают информацию быстрее.

2. Движения, звук, мультипликация надолго привлекают внимание детей и способствуют повышению у них интереса к изучаемому материалу. Высокая динамика занятия способствует эффективному усвоению материала, развитию памяти, воображения, творчества детей.

3. Обеспечивают наглядность, которая способствует восприятию и лучшему запоминанию материала, что очень важно, учитывая наглядно-образное мышление детей дошкольного возраста. При этом включаются три вида памяти: зрительная, слуховая, моторная.

4. Слайд-шоу и видеофрагменты позволяют показать те моменты из окружающего мира, наблюдение которых вызывает затруднения: например рост цветка, вращение планет вокруг Солнца, движение волн, дождь.

5. Также можно смоделировать такие жизненные ситуации, которые нельзя или сложно показать и увидеть в повседневной жизни (например, воспроизведение звуков природы, работу транспорта и т.д.).

6. Использование информационных технологий побуждает детей к поисковой исследовательской деятельности, включая и поиск в сети Интернет самостоятельно или вместе с родителями.

7. ИКТ – это дополнительные возможности работы с детьми, имеющими ограниченные возможности.

Каковы же основные направления развития ИКТ в дошкольном образовательном учреждении?

1. Использование компьютера с целью приобщения детей к современным техническим средствам передачи и хранения информации, что осуществляется в различных игровых технологиях. Это различные компьютерные «игрушки»: развлекательные, обучающие, развивающие, диагностические, сетевые игры. В работе с дошкольниками педагоги используют в основном развивающие, реже обучающие и диагностические игры.

Среди развивающих игр можно выделить игры на развитие математических представлений: «Баба-Яга учится считать», «Остров Арифметики», «Лунтик. Математика для малышей»; игры на развитие фонематического слуха и обучения чтению «Баба-Яга учится читать», «Букварь»; игры для музыкального развития, например «Щелкунчик. Играем с музыкой Чайковского».

Следующая группа игр направлена на развитие основных психических процессов: «Звериный альбом», «Снежная королева», «Русалочка», «Спасем планету от мусора», «От планеты до кометы», «Маленький искатель».

Третья группа – это прикладные средства, созданные с целью художественно-творческого развития детей: «Мышка Мия. Юный дизайнер», «Учимся рисовать», «Волшебные превращения». В качестве обучающих игр можно привести пример игр «Форма. Секреты живописи для маленьких художников», «Мир информатики».

В настоящее время выбор компьютерных игровых программных средств для дошкольников достаточно широк, но, к сожалению, большинство из этих игр не рассчитаны на реализацию программных задач, поэтому могут использоваться лишь частично, преимущественно с целью развития психических процессов: внимания, памяти, мышления. Основные фирмы-производители развивающих и обучающих компьютерных игр – компания «Новый диск», «Медиа Хауз», а также «Alisa Studio» и фирма «1С».

2. ИКТ как средство интерактивного обучения, которое позволяет стимулировать познавательную активность дошкольников и участвовать им в освоении новых знаний. Речь идет о созданных педагогами играх, которые соответствуют программным требованиям. Эти игры предназначены для использования на развивающих занятиях с детьми. Интерактивные игровые средства позволяет создавать программа PowerPoint.

3. Разработка технологии с включением ИКТ, которая базируется на комплексных (интегрированных) занятиях (досугах). Технология разрабатывается по какой-либо из образовательных областей (музыка, художественная литература, познание). Занятия включают в себя разнообразную продуктивную деятельность детей на основе федеральных государственных требований.

4. ИКТ как средство автоматизированной системы управления. Данная технология реализуется в дошкольном учреждении с целью осуществления идеи сетевого управления, организации педагогического процесса, методической службы. Данная технология обеспечивает планирование,

контроль, мониторинг, координацию работы воспитателей, специалистов, медиков. В этом случае использование ИКТ способствует оптимизации деятельности ДООУ, повышению его эффективности в условиях инклюзивного обучения и воспитания дошкольников, расширению границ образовательного пространства за счет активного включения родителей и детей, не посещающих детский сад.

Совершенно очевидно, что педагоги должны идти в ногу со временем, стать для ребенка проводником в мир новых технологий. Коммуникативная компетентность педагога предполагает способность выстраивать коммуникации в различных форматах: устном, письменном, дискуссионном, визуальном, компьютерном, электронном. Педагог должен не только уметь пользоваться компьютером и современным мультимедийным оборудованием, но и создавать свои образовательные ресурсы, широко использовать их в своей педагогической деятельности.

Воспитатели ДООУ обязаны обеспечить полноценный переход детей на следующий уровень системы непрерывного образования, дать им возможность стать участниками единого образовательного пространства Республики Узбекистан. Очень важно, чтобы педагоги умели и, самое главное, имели возможность и желание использовать ИКТ в своей работе. Одно из главнейших условий успеха информатизации образовательного процесса – овладение педагогами новыми для них формами работы. Перед воспитателем детского сада, освоившим ИКТ, открываются безграничные возможности для эффективной творческой работы с детьми и самореализации.

Рассмотрим области применения ИКТ педагогами ДООУ.

1. *Ведение документации.* В процессе образовательной деятельности педагог составляет и оформляет календарные и перспективные планы, готовит материал для оформления родительского уголка, проводит диагностику и оформляет результаты как в печатном, так и в электронном виде. Диагностику необходимо рассматривать не как разовое проведение необходимых исследований, но и ведение индивидуального дневника ребенка, в котором записываются различные данные о ребенке, результаты тестов, выстраиваются графики и в целом отслеживается динамика развития ребенка. Конечно, это можно делать и без использования компьютерной техники, но качество оформления и временные затраты несопоставимы. Важным аспектом использования ИКТ является подготовка педагога к аттестации. Здесь можно рассматривать как оформление документации, так и подготовку электронного портфолио.

2. *Методическая работа, повышение квалификации педагога.* В информационном обществе сетевые электронные ресурсы – это наиболее удобный, быстрый и современный способ распространения новых методических идей и дидактических пособий, доступный методистам и педагогам независимо от места их проживания. Информационно-методическая поддержка в виде электронных ресурсов может быть

использована во время подготовки педагога к занятиям, для изучения новых методик, при подборе наглядных пособий к занятию. Сетевые сообщества педагогов позволяют не только находить и использовать необходимые методические разработки, но и размещать свои материалы, делиться педагогическим опытом по подготовке и проведению мероприятий, по использованию различных методик, технологий.

Современное образовательное пространство требует от педагога особой гибкости при подготовке и проведении педагогических мероприятий. Педагогу необходимо регулярное повышение своей квалификации как в традиционной форме, так и с помощью дистанционных технологий. При выборе таких курсов необходимо обратить внимание на наличие лицензии, на основании которой осуществляется образовательная деятельность. Дистанционные курсы повышения квалификации позволяют выбрать интересующее педагога направление и обучаться без отрыва от основной образовательной деятельности.

Важным аспектом работы педагога является и участие в различных педагогических проектах, дистанционных конкурсах, викторинах, олимпиадах, что повышает уровень самооценки как педагога, так и воспитанников. Очное участие в таких мероприятиях часто невозможно из-за удаленности региона, финансовых затрат и других причин. А дистанционное участие доступно всем. При этом необходимо обратить внимание на надежность ресурса, количество зарегистрированных пользователей.

Бесспорно, важно использование ИКТ и для ведения документации, и для более эффективного ведения методической работы, и для повышения уровня квалификации педагога, но основным в работе педагога ДООУ является ведение воспитательно-образовательного процесса.

2. *Воспитательно-образовательный процесс* включает в себя:

- организацию непосредственной образовательной деятельности воспитанника;
- организацию совместной развивающей деятельности педагога и детей;
- реализацию проектов;
- создание развивающей среды (игр, пособий, дидактических материалов).

Однако при всех неизменных плюсах использования ИКТ в дошкольном образовании возникают и следующие проблемы:

1. *Материальная база ДООУ.* Как уже отмечалось выше, для организации занятий необходимо иметь минимальный комплект оборудования: ПК, проектор, колонки, экран или мобильный класс. Далеко не все детские сады на сегодняшний день могут позволить себе создание таких классов.

2. *Защита здоровья ребенка.* Признавая, что компьютер – новое мощное средство для развития детей, необходимо помнить заповедь «НЕ НАВРЕДИ!». Использование ИКТ в дошкольных учреждениях требует

тщательной организации как самих занятий, так и всего режима в целом в соответствии с возрастом детей и требованиями санитарных правил и норм. При работе компьютеров и интерактивного оборудования в помещении создаются специфические условия: уменьшается влажность, повышается температура воздуха, увеличивается количество тяжелых ионов, возрастает электростатическое напряжение в зоне рук детей. Напряженность электростатического поля усиливается при отделке кабинета полимерными материалами. Пол должен иметь антистатическое покрытие, а использование ковров и ковровых изделий не допускается. Для поддержания оптимального микроклимата, предупреждения накопления статического электричества и ухудшения химического и ионного состава воздуха необходимо: проветривание кабинета до и после занятий, влажная уборка до и после занятий. Занятия со старшими дошкольниками следует проводить один раз в неделю по подгруппам. В своей работе педагог должен обязательно использовать комплексы упражнений для глаз.

3. *Недостаточная ИКТ-компетентность педагога.* Педагог не только должен в совершенстве знать содержание всех компьютерных программ, их операционную характеристику, интерфейс пользователя каждой программы (специфику технических правил действия с каждой из них), но и разбираться в технических характеристиках оборудования, уметь работать в основных прикладных программах, мультимедийных программах и сети Интернет.

Если педагогическому коллективу ДООУ удастся решить эти проблемы, то ИКТ станут прекрасным помощником процесса обучения.

Литература

1. Роберт И.В. *Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы, перспективы использования.* М., 2010.
2. *Использование современных информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе / авт.-сост. Д.П. Тевс, В.Н. Подковырова, Е.И. Апольских, М.В. Афонина.* Барнаул, 2016.
3. Захарова И.Г. *Информационные технологии в образовании.* М., 2003.
4. Безруких М.М., Парамонова Л.А., Слободчиков В.И. *Предшкольное обучение: «плюсы» и «минусы» // Начальное образование.* 2006. № 3. С. 9-11.
5. Езопова С.А. *Предшкольное образование, или Образование детей старшего дошкольного возраста: инновации и традиции // Дошкольная педагогика.* 2017. № 6.
6. Калинина Т.В. *Управление ДООУ // Новые информационные технологии в дошкольном детстве.* М., 2018. С. 20-27. 7. Комарова Т.С., Комарова И.И., Туликов А.В. *Информационно-коммуникационные технологии в дошкольном образовании.* М., 2011.
8. Шаехова Р.К. *Предшкольное образование: актуальность, проблемы, стратегия развития // Начальная школа плюс До и После.* 2016. № 7.

O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Temirova G.G., Andijon davlat universiteti, O'zbekiston

Annotasiya. Tezisdagi ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun axborot texnologiyalarining usullaridan, turli metodlardan foydalanish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim, ta'lim metodi.

Аннотация. В тезисе рассмотрены об использовании различных методов и приёмов информационной технологии в целях повышения образования.

Ключевые слова: Технология, педагогическая технология, образование, метод обучения.

Annotatsion. The thesis is written about using of different methods of information technologies in order to achieve the purpose of education.

Keywords: Technology, pedagogical technology, education, educational method.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim berishning zamonaviy usullarini takomillashtirish va amalga oshirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiyaning barcha jarayonlari har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasiga qaratiladi, birinchi navbatda bu dars jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, hozirgi sharoitda darsning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish masalasi-ta'lim muassasasi va o'qituvchi oldida birinchi darajali vazifa qilib qo'yilmoqda. Fanlarni o'qitishda ta'lim samaradorligiga erishishda ko'p jihatdan o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishga bog'liqdir.

Ta'lim berish jarayonida ta'lim maqsadini amalga oshirishda axborot texnologiyalarining usullaridan, turli metodlardan foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishga olib keladi. Jumladan, ma'ruza, namoyish, audio, vizual usul, bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, ishbop o'yin, rolli o'yin, muammoli vaziyat va davra suhbatlaridan foydalanib, o'quvchilarda o'z sog'ligi haqida qayg'urish hamda sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'nikmalarini hosil qilish mumkin. Axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida bilim oluvchining yoshi, darsga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlari, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olish lozim.

Pedagog shuni yodda tutishi lozimki, bilim oluvchining o'zlashtirish darajasi o'qitish metodlarining ta'sir darajasiga bog'liq bo'ladi. Tajribalardan shu narsa ma'lumki, axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tilganda bilim oluvchining o'zlashtirish darajasiga, o'qitish metodlarining ta'sir darajasi quyidagicha:

- ma'ruza eshitish orqali 5%;
- o'qish orqali 10%

- audio vizual usul, namoyish orqali 20%
- bahs – munozara, muhokama qilish orqali 40%
- kichik guruhlarda ishlash, loyihalash mustaqil o‘qish, tahlil va muhokama qilish, himoya va namoyish qilish orqali 75%
- yo‘naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o‘qitish orqali berilayotgan axborotni 90% esda saqlab qolish mumkin.

Axborot texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini to‘g‘ri loyihalashga o‘quv materiallarining mazmuni bilim oluvchilar ongiga tez, oson singdirishga erishilsa, ma‘lumotlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Ma‘lumki, har qanday texnologiya ta‘limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta‘lim tamoyillariga asoslanadi va ta‘lim oluvchi shaxsni tarbiyalash unda mehnat va muayyan yo‘nalishlarda kasbiy ko‘nikmalarni hosil qilishga yo‘naltiriladi.

O‘qituvchi bilan talaba orasidagi munosabat erishilgan yutuqlardan zavqlanish o‘quv faoliyatiga ma‘suliyatli yondashish hamda o‘zaro hamkorlikda ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishga undashi kerak. Bu esa pedagog ta‘sirini tashkil etishi uchun zarur bo‘lgan o‘zaro aloqa vositasi, “ko‘prik”ni vujudga keltiradi. Axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga faol tadbiiq etish hisobiga ta‘lim jarayoni rag‘batini (motivatsiyali) kuchaytirilishi mumkin. Axborot texnologiyalar turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar tashkil etilayotgan darslarning shakli qo‘llanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bog‘liq. Axborot texnologiyalarni ishlab chiqishning analitik bosqichida ta‘lim mazmuni hamda mashg‘ulotning umumiy, aniq maqsadiga erishishi uchun ta‘limning tashkiliy shaklini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Axborot texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishning konseptual – pedagogik bosqichida ta‘lim konsepsiyalari, ta‘lim tizimi bosqichlarida nazarda tutilgan asosiy g‘oyalar, umumiy xulosalar hisobga olinadi.

Modulning tarkibiy tuzilishi umumiy o‘rta ta‘lim, akademik- litsey, kasb-hunar kolleji, bakalavriyat, magistratura, umuman sotsiumning tarkibi sifatida ifodalanadi. Bu ayniqsa, bosqichli ta‘lim tizimining alohida elementlari uchun xarakterlidir. Pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotga tadbiiq etishning maqsadli bosqichida ta‘lim muassasasi (umumiy o‘rta ta‘lim, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, institut yoki univerisitet)ning uzoq muddatga mo‘ljallangan maqsadi, ta‘lim sohalari va shu blokda alohida olingan o‘quv predmeti tarkibidagi aniq bir blokning aniqlanishi hisobga olinadi. Axborot va pedagogik texnologiyalarini amalda qo‘llashning mazmunli bosqichida ta‘lim sohalari, muayyan blok tizimidagi o‘quv predmetlari mazmunini tanlash tamoyillari, alohida elementlar, ya‘ni aniq o‘quv identifikatsiya predmetlari mohiyatini yorituvchi yirik mavzularda aks ettirishi kerak. Axborot texnologiyani amalda qo‘llashning jarayonli bosqichida o‘qituvchining vazifalari shuningdek, o‘quvchilar tomonidan o‘quv faoliyatini tashkil etishda yo‘naltirilgan ta‘lim turi, metodlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning demokratik tamoyili, samarali usul, tashkiliy shakl va ta‘lim vositalarining tanlanishiga alohida urg‘u beriladi.

Umumlashgan pedagogik texnologiyalar malum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan “sintetik nazariya” sifatida qaraladi. Amaliy va pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishish maqsadida tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonining pedagogik texnologiyasi o‘zida ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metodlar, vositalar mazmuni, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijaga erishishini taminlovchi majmuani mujassamlashtiradi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yuzasidan o‘qituvchi tarbiyachilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishni takomillashtirish hamda jadallashtirish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi shakllantirishlari yuzasidan maxsus kurslarida gigiena bo‘yicha bilimlarini oshirishni yo‘lga qo‘yish;

- ta’lim muassasalarining yillik rejasida guruh o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalarni kiritilishi;

- o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida, fan va kasb-hunar o‘qituvchilarida ilmiy-metodik jihatdan talab darajasidagi tayyorgarlik hamda yuqori darajadagi pedagogik mahoratga ehtiyoj seziladi. Mazkur jarayonda eng avvalo, o‘qituvchining o‘zi o‘quvchiga namuna bo‘la olishi muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. – Т.: “Шарқ”, 1998.– 64 б.

2. Абдуқодиров, А.А. Таълим ва тарбияда замонавий педагогик техноло-гиялардан фойдаланиш услуги/ А.А.Абдуқодиров, А.Х.Пардаев – Т.: «Тафаккур», 2014.

3. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. – Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013.

4. Сапоева И. "Соғлом авлод тарбияси-буюк давлат куриш заминидур". Т., 2004 й.

5. Ahmadaliyev D., Chen X., Medatov A., Abduvoxidov M., Temirova G. An adaptive activity sequencing instrument to enhance e-learning: an integrated application of overlay user model and mathematical programming on the Web. - 2019 International Conference on Computer and Information Sciences (2019 ICCIS) 978-1-5386-8125-1©2019 IEEE

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI UCHUN ANIMATSION ROLIKLAR YARATISHDA CRAZY TALK DASTURIDAN FOYDALANISH

Fayziyeva D.H., Xalikova U.M. Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, O'zbekiston

Maqolada CrazyTalk dasturi haqida ma'lumot berilgan. CrazyTalk dasturining muhim imkoniyatlari ko'rsatilgan. Maqolada CrazyTalk dasturidagi turli vazifalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi

Эта статья дает вам краткий обзор CrazyTalk. Представлены важные функции CrazyTalk, статья содержит информацию о различных функциях CrazyTalk.

This article gives you a quick overview of CrazyTalk. Important features of CrazyTalk are presented, the article contains information about various CrazyTalk features.

Kalit so'zlar: virtual, nutq, tovush, model, videofayl, texnologiya, animatsiya, komiks, foto, nuqta, tizim, monopulyatsiya, personaj, funksiya

Ключевые слова: виртуальный, речь, звук, модель, видео, технология, анимация, комикс, фотография, точка, система, манипулирование, персонаж, функция

Key words: virtual, speech, sound, model, video, technology, animation, comics, photograph, point, system, manipulation, character, function

CrazyTalk dasturi 3D foto morfing texnologiyasidan foydalangan holda tanlangan fotosuratga hissiyotlar, nutq, tovush, yuz elementlari va boshqa ko'p narsalarni qo'shadigan fotosuratlariga animatsiya beruvchi dastur.

CrazyTalk dasturida komiks yaratish uchun CrazyTalk-ga asl rasm yuklanadi, asosiy nuqtalar yordamida ko'zlar, og'iz va burun joylashgan joyini ko'rsatiladi, yuz shaklini belgilanadi va erkin ijodkorlikni boshlash mumkin. Xayol parvozi deyarli cheksiz!

- Loyihalarni multimediya qo'shadigan raqamli fotosuratlar bilan virtual animatsion aktyorlar yaratish imkoniyati CrazyTalk dasturida berilgan.

- Videolarni tahrirlashda, filmlarda, oilaviy foto albomlarda va boshqa multimedia loyihalarida CrazyTalk dasturidan foydalanish mumkin.

- CrazyTalk maxsus hissiyotlar bloki virtual fe'l-atvorni tabassum qilish, xafa bo'lish yoki nutq so'zlayotganda yuzni ochishga yordam beradi.

- matnni nutqqa aylantirish mumkin. Yozilgan matn yon tomonda joylashgan rasm bilan talaffuz qilinadi. Matnni kiritganingizdan so'ng, videofaylni keyinchalik do'stlarga yuborish mumkin yoki YouTube-ga mobil telefonga yuklash uchun yaratish mumkin.

CrazyTalk dasturi aktyorlar, personajlar va ob'ektlar suhbatining animatsiyasini yaratish uchun kerak bo'lgan hamma narsani qila oladi!

- Tishlar va ko'zlarning to'g'ri modellarini shakllantirish uchun dastur boshlang'ich bosqichda "virtual tishlar" ning maxsus kutubxonasiga murojaat qilishni taklif qiladi - siz virtual tishlarning shaklini har kim o'z tasviriga to'liq mos keladigan tarzda o'zgartirishi mumkin. Har bir qilingan ish bo'yicha tajribalarning yakuniy natijasi belgilangan formatdagi videofaylga yozib qo'yiladi.

- 3D yuzni modellashtirish texnologiyasi etnik xususiyatlarni hisobga olgan holda inson anatomik ma'lumotlari kutubxonasiga asoslanadi. Ishni tezlashtirish uchun 9 ta profil taklif etiladi - tanlangan variant keyingi sozlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Old va yon rasmlar asosida boshning to'liq 3D-modelini yaratish yuzning konturini aniqroq aniqlash va animatsiya sifatini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi(1-rasm).



1-rasm

CrazyTalk 8-da joriy qilingan yangi Head Creator tizimi tufayli qahramonlar yaratish va animatsiya qilish imkoniyatlari cheksiz . Endi oddiy manipulyatsiyalar orqali har qanday tasvirni yoki jonsiz narsani harakatlantirish mumkin(2-rasm).



2-rasm


Yuzning ramkasi boshni burish paytida buzilishlarni minimallashtiradigan tarzda o'rnatiladi. Yuzni yo'naltirish funktsiyasi old va yon tomonlarni (45 ° gacha aylantirish bilan) tahrirlashga imkon beradi. Yuz atrofidagi qo'shimcha ramkaga ega bo'lgan maxsus qavat hajmli soch turmagi, katta quloq yoki shoxli belgilar bilan ishlashni osonlashtiradi. Moslashtirilgan yuz profil uslublari har xil komikslar yoki multfilmlarning odamlari, hayvonlari va qahramonlari kabi turli xil personajlarning haqiqiy animatsiyasiga erishishga imkon beradi. Dastur nafaqat

ko'zlar va og'izning uslubini tanlashga, balki yuzning ushbu elementlarining rangini, joylashishini va hajmini o'zgartirishga imkon beradi (3-rasm).

Mask muharriri funksiyasi avtomatik ravishda dastlabki rasm fonini olib tashlaydi, bu so'zma-so'z bir nechta qo'l harakati bilan aniqlanadi va natijada sozlash va ob'ektning chegaralarini yumshatish. Agar so'ralsa, o'chirilgan fon o'rniga, sizning badiiy maqsadingizga mos keladigan har qanday boshqa rasmlardan foydalanishingiz mumkin(4-rasm).



3-rasm



4-rasm

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun CrazyTalk dasturi orqali turli videoroliklar yaratishni tavsiya qilaman. O'ylaymanki bu bolalar uchun juda qiziqarli bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. <http://all-freeload.net/>
2. <https://soft.mydiv.net/>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI VA O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

*Qambarova R.I. Izboskan tumani "Maktabgacha ta'lim" bo'limi mudir
o'rinbosari, O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohatlarga munosabat va AKTdan foydalanish tamoyillari va o'ziga xos hususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Yosh avlodni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifalarni bajarishda ta'limga innovatsion g'oyalar, yangiliklar muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiya, pedagog, tizim, baza, video, audio, texnika, innovatsiya, intellektual, monitor, material, grafika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются подход к системным реформам в развитии дошкольного образования и принципы и особенности использования ИКТ. Была подчеркнута важность инновационных идей и инноваций в образовании для решения ответственных задач по воспитанию подрастающего поколения.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, педагог, система, база, видео, аудио, технологии, инновации, интеллектуал, монитор, материал, графика.

Annotation. This article discusses the approach to systemic reforms in the development of preschool education and the principles and specifics of the use of ICT. The importance of innovative ideas and innovations in education in fulfilling the responsible tasks of educating the younger generation has been highlighted.

Keywords: Information and communication technology, educator, system, base, video, audio, technology, innovation, intellectual, monitor, material, graphics.

Maktabgacha ta'limni davr talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ustuvor o'rin egallamoqda. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalami intellektual, jismoniy, ma'naviy rivojlantirish, ulami maktab ta'limiga samarali tayyorlashdan iborat.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalami maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-

sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Bu o'z navbatida, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish, ularda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi.

S.S.Gulomov: "Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsalar axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 % ga ortadi". deb ta'kidlagan.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha: bolalar asbob-uskunalariga, texnik qurilmalar va transport vositalarining modellariga, o'yinchoqlarga juda qiziquvchan bo'ladilar. Shular qatorda, ularda ishlash ham bolalarning o'rganilayotgan materialga nisbatan qiziqishlarini ortib, bilim olishga ishtiyoqlarini kuchaytiradi, ko'nikma hosil qiladi va fikrlash doirasi oshadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turi bo'lgan multimediya texnologiyalarining asosiy tamoyili kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning maxsuldorligi, to'g'ri va teskari aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanishidan iborat. Shuningdek, pedagogik tajriba natijalari multimedia vositalaridan MTT ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning didaktik tamoyillari qatoriga: "kompyuter monitori ko'rsatuvi kabi bajar" yoki "kompyuter monitoriga qarab bajar" bo'lib, umumiy tamoyillariga dasturlashtirish, ilmiylik, moslik, jadallik, ta'lim maqsadlarining o'zaro bog'liqligi, ko'rgazmalilik, tizimlilik, materialni tushunarli bo'lishi, faollik va mustaqillik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi omillari, vosita(kompyuter)ning ixchamligi va umumiyligi kirishini ko'rsatdi.

AKTdan foydalanishning o'ziga xos hususiyatlari. Tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarni xajmini ko'paytirishda, ta'lim jarayonini oldindan loyihalashda, natijani kafolatlashda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek ta'lim mazmunida, tuzilishida, uslublarida va shakllarida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarda olingan bilimlarini uzoq vaqt xotiralarida saqlash imkoniyati yaratiladi. Bolalarning qiziqishlarini va kompyuterga nisbatan ishtiyoqlarini ortiradigan o'ziga xos uslub multimedia texnologiyasidan foydalanish hisoblanadi.

Ta'lim tizimining bosh maqsadi yosh avlodni bilimli va barkamol etib tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa turar ekan, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda yuqoridagi tamoyillarga asoslanib xar bir maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining AKTdan unumli foydalansh loyihasini ishlab chiqib amaliyotga joriy etishi va ota-onalarning kuzatuvini ta'minlanish ta'limda innovatsion yangiliklarni amalgam oshishiga zamin bo'la oladi.

Modomiki, buyuk kelajakni qurmoq yo'lida ekanmiz, xalqaro talablarga javob bera oladigan loyihalar innovatsiyalar, kreativ g'oyalarni olib kirish va rivojlantirish vaqti keldi.

Adabiyotlar

1. *Sh.Mirziyoyev. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.,2016. O'z. Res. Qonun hujjatlari to'plami.2017 y.*
2. *Ikromova X.Z. "Zamonaviy axborot tizimlari",-T.,TIU, 2006.*
3. *Voxobova F., Nabixanova Sh.B, Karimova D.T. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari. Pedagogika kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma.-T.,2015.*
4. *P.Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Qo'llanma-1993 y.*
5. *<http://www.botik.ru/ICCC/NewPage/ICCCpageRus/> - Xalqaro bolalar kompyuter markazi loyixasi sayti.*

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

*Iminova Dilnoza. Andijon shahar 20 – umumta'lim maktab o'qituvchisi,
O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunda ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning AKTdan foydalanish ko'nikmasi yetarli emasligi, ushbu muammoni hal qilishda faoliyat jarayonini takomillashtirish, yagona ta'lim muhitini yaratish va ta'lim sifatini yaxshilash muhimligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, axborot texnologiyasi, axborot resurs, kommunikatsiya, texnik vosita, faoliyat ishlanmalari, masofaviy ta'lim

Аннотация. В данной статье обсуждается содержание работы по внедрению передовых информационных и педагогических технологий в дошкольном образовании, необходимость использования ИКТ педагогами и детьми, а также важность, содержание и преимущества мультимедийных технологий. Было изучено, что это оказывает положительное влияние на развитие детей в дошкольных учреждениях. Было установлено, что важно учитывать возрастные характеристики.

Ключевое слово: Интерактивные методы, информационные технологии, информационный ресурс, коммуникация, технические средства, развитие деятельности, дистанционное обучение

Annotation. This article discusses the content of the work on the introduction of advanced information and pedagogical technologies in preschool education, the need for educators and children to use ICT and the importance, content and benefits of multimedia technologies. It has been studied that it has a positive effect on children's development in preschool institutions. It was found important to take into account age characteristics.

Key words: Interactive methods, information technology, information resource, communication, hardware, activity development, distance learning

Yosh avlodni ma'rifatli, bilimli etib tarbiyalashda bugungi kunda ta'lim tizimida ko'plab islohatlar olib borilmoqdaki, bu ham bo'lsa, kelajagimiz ertasi bo'lgan yoshlarni sifatli ta'lim-tarbiya olishi uchun jahon andozalariga mos shart – sharoitlar yaratish va moddiy-texnik bazani ta'minlash va bir qator vazifalar ustuvor hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning bir qismi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish juda muhim, shuning uchun bolaning faolligi, qiziqishini erta aniqlab, ularni rivojlantirish darkor. Tarbiyachiga ushbu murakkab vazifani hal qilishda yordam berish uchun an'anaviy ta'lim usullaridan noan'anaviy usullarga

o'tish, interfaol metodlarni qo'llash va zamonaviy axborot texnologiyalarini olib kirish ko'zda tutulgan maqsadlarga erishishda muhim omil bo'ladi.

I.G.Zaxarov fikriga ko'ra: "Axborot texnologiyalari - axborot resurslari bilan ishlashning usullari va vositalari, o'rganilayotgan ob'ekt haqidagi yangi axborotni olish uchun ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish usullari haqida ma'lumot to'plami" deb ta'kidlagan.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi guruh tarbiyalanuvchilarni ta'lim-tarbiya berishning turli strategiyalarini, birinchi navbatda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faoliyat jarayonida qo'llash zarur bo'ladi. Maktabga tayyorlov guruhlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar atrof muhitning axborot oqimini boshqarish, axborot bilan ishlashning amaliy yo'llarini o'rganish, zamonaviy texnik vositalar yordamida axborot almashish imkonini beradigan ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. 6-7 yoshli bolalar uchun AKTdan foydalanish tushuntirishli-rasmi ta'lim metodikasidan amaliy mashg'ulotda asoslangan faoliyatga o'tishga imkon beradi, unda bolaning ta'lim faoliyati faol mavzusi bo'ladi. Bu bolalarning ongli ravishda o'rganilishiga yordam beradi. *AKTdan foydalanish quyidagicha afzalliklarni beradi:*

- bolalarning ta'lim olish faoliyatini faollashtirish;
- yuqori estetik darajadagi faoliyatni o'tkazish (musiqa, animatsiya);
- bolaga individual ravishda murojaat qilish, bosqichli vazifalarni qo'llash.

Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) maktabgacha ta'lim jarayonida foydalanish dolzarb muammo zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini o'quv -metodik qo'llanmalarining yetishmasligi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sifati bo'yicha tarbiyachilar AKT yordamida faoliyat ishlanmalarini tayyorlashi, faoliyatga doir taqdimotlar yaratishi va bolalarni yosh hususiyatiga mos animatsion ko'rgazmalar tayyorlashi va o'tkazishi kerak.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan faoliyat ochiq, rang-barang, informativ, interaktiv, tarbiyachi va bolalar vaqtini tejaydi, bolalarni o'z tezligida ishlashga imkon beradi, tarbiyachini bolalar bilan alohida ishlashga imkon beradi va faoliyat natijalarini tezda kuzatish va baholash imkonini beradi.

Asosiy maqsad ushbu muammoni hal qilishda faoliyat jarayonini takomillashtirish, yagona ta'lim muhitini yaratish va ta'lim sifatini yaxshilash ko'zda tutilgan. Buning uchun tarbiyachilarga:

- turli mavzudagi ob'ektlarni integratsiyalashuvi;
- barcha faoliyat turlarini o'tkazishni modernizatsiya qilish;
- ta'lim resurslarini to'plash;
- zamonaviy axborot texnologiyalarining tarbiyachisini egallash;
- tarbiyachi va bolalar o'rtasida, tarbiyachilar o'rtasida ijodiy almashish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi yechimlarni aniqlash kerak.

- zamonaviy axborot makonida bolalarning malakasi va orientatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bolalarda tizimli va kreativ fikrlaydigan qobiliyatlarni tarbiyalash;

- bolalar va tarbiyachilar ijodiy jamoasining atmosferasini shakllantirish va rivojlantirish;

- bolalarning kompyuterga bo'lgan munosabatini bilish faoliyati vositasi sifatida shakllantirish;

Kelgusida maktabgacha ta'limda boshqa ta'lim shakllarini joriy etish zarur. Masalan, AKT bazasida masofaviy ta'lim muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Agar biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarini chindan ham band qilmoqchi bo'lsak, bu muammolarni yechish AKT va masofaviy ta'limda o'qitishdan foydalanish kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat faoliyat jarayonida, balki ta'limiy-tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy jihatdan ham qo'llashni o'rganish kerak.

Adabiyotlar

1. *Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирининг 2018 йил, 18 июндаги “Ўзбекистон республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талабларини тасдиқлаш ҳақида”ги 1-тн-сонли буйруғи билан тасдиқланган Давлат талаблари. – Тошкент, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.07.2018-й., 10/18/3032/1450-сон*

2. *“Илк қадам”. Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. – Т., 2018-59 б.*

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Содиқова О.А. Андижон давлат университети магистри, Ўзбекистон

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини ривожлантириш, таълим сифатини юқори босқичга кўтариш борасида амалга оширилаётган ислохатлар ҳақида сўз боради. Бугунги кунда жаҳонда ва юртимизда кузатилаётган пандемия даврида масофавий таълимнинг долзарблиги ва аҳамияти нечоглик зарур эканлиги кузатилиб, атрофлича фикр – мулоҳазалар юритилган.

Калим сўзлар: Коммуникация, технология, ўқитиш усуллари, “Илк қадам” ўқув дастури, Covid-19, видео, аудио, ахборот.

Annotation. The article discusses the ongoing reforms in Uzbekistan to develop modern information and communication technologies, improve the quality of education. The urgency and importance of distance education in the world and in our country during the pandemic has been observed and discussed in detail.

Keywords: Communication, technology, teaching methods, "First step" curriculum, Covid-19, video, audio, information.

Аннотация. В статье рассказывается о проводимых в Узбекистане реформах, направленных на развитие современных информационно-коммуникационных технологий, повышение качества образования. Во время пандемии в мире и в нашей стране сегодня актуальность и важность дистанционного образования наблюдалась и обсуждалась подробно.

Ключевые слова: коммуникация, технология, методика обучения, учебный план «Первый шаг», Covid-19, видео, аудио, информация.

Барчамизга маълумки 2020 йил юртбошимиз томонидан “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш” йили деб эълон қилинди. Президентимиз Ш. Мирзиёев Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик Палатасига навбатдаги мурожаатномасида илм-фан ва технологиялар ривожига аҳамият қаратди.

Дарҳақиқат, замонавий ахборот ва коммуникация технология воситаларини таълим жараёнига кириб келиши ўқитиш усулларига янги шакл берди. Интернет тизими ва ахборот технология коммуникацияларидан мақсадли фойдаланиш, аввало таълим сифатини юқори босқичга кўтариш имкониятини берди. Бу эса ўз навбатида таълим олишнинг янги шакли - масофавий таълимга замин яратди.

Масофавий таълим — ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб ўқув ахборотлари алмашинувини таъминлайдиган муайян фан бўйича билим ва кўникмаларни эгаллаш жараёнидир.

Масофавий ўқитишнинг самарали афзалликлари қуйидаги омилларга асосланади:

- болалар муайян вақтда ўз уйида эркин таълим олиши;
- куннинг исталган қисмида тарбиячи билан боғланиб, ота-оналар кўмагида машғулот юзасидан керакли тавсиялар олиши;
- ахборот технология коммуникацияларидан унумли фойдаланиш “илк кадам” давлат ўқув дастурида берилган фаолият (машғулот) ларни ўрганиши;
- хорижий тилларни ўрганишда расмли анимациялардан фойдаланиб эслаб қолиши;
- машғулотларни гуруҳда ўтиши шарт эмаслиги;
- болаларга мустақил ўқишига имкон бериши;
- болаларнинг мустақил фикрлашга ва қарор қабул қилиш қобилияти ривожланиши;
- уларда техник қурилмалар билан ишлаш кўникмаси компьютер тизимидан фойдаланишни шаклланиши;
- математик тасаввурларни шакллантириш, ижодий кўникмаларни тарғиб қилиш имкониятларни очиб беради.

Масофавий таълим нафақат болалар билан гуруҳларда, балки ҳар бир бола билан индивидуал ишлаш имконини ҳам берди. Бу эса тарбиячи ва бола орасидаги турли психологик тўсиқларни олиб ташлади.

Шу билан бирга турли хил расмли топшириқлар болаларни тасаввурларини кенгайтиришга ва бошланғич билимларни ривожланишига ёрдам беради.

Ҳозирги кунда жаҳонда ва юртимизга кузатилаётган Covid-19 пандемияси сабаб, юртимизнинг барча таълим турлари масофавий таълимга ўтилди ва бу бўйича тегишли чора-тадбирлар кўрилди. Хусусан мактабгача таълим тизимида ҳам бир қанча ишлар амалга оширилди. Эндиликда ота-оналар болаларининг оилада таълим-тарбия олиши учун ўқитишнинг видео ва аудио кўринишларидан фойдаланган ҳолда таълим олмоқдалар.

Мактабгача таълим ташкилотларида олиб борилаётган масофавий таълимни агар жоиз бўлса, ҳамкорликдаги таълим ҳам дейиш мумкин. Бунда тарбиячи- болалар ва ота - она таълим жараёнини биргаликда олиб боради. Бу жараёнда ота-она фарзандига елкадош бўлиши, фаолият (машғулот) ларни ўз вақтида бажаришини назорат қилиши лозим. Болани ота-она кузатиб борар экан, уни билимларни ўзлаштиришида янада ижобий ва самарали натижа бўлади. Ачинарлиси шундаки, давлатимиз фарзандларимизни билим олишига қанчадан - қанча шароитларни яратиб бераётган бир пайтда, айрим ота-оналарни фарзандини таълим- тарбия олишига муносиб шароит яратиб бермаётгани дилни хира қилади албатта. Шунини чуқур англамоғимиз лозимки, қилинаётган ҳамма ишлар фақат фарзандларимизнинг порлоқ келажаги, уларни ҳар томонлама билимли юксак маънавиятли ва комил инсон бўлиб етишишига қаратилган.

АДАБИЁТЛАР

1. *Ш.Мирзиёев. “2017-2021- йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” ги қарори. Т., 2016.*

2. *Арипов М. Информатика ва ахборот технологияси асослари. - Т.: Университет, 2001. -360 б.*
3. *Бегматова Н.Х. Богча болаларининг билимини баҳолашда мультимедиа технологиясидан фойдаланиш. Қарши ДУахборотномаси. 2009. -№2. -Б. 63-10.*
4. *Б. Фарберман. Илгор педагогик технологиялар - Т., 2017.*
5. *Равшанова Н. Мактабгача таълим муассасаларида экологик таълим-тарбия.Т.: Укитувчи, 2008. -108 б.*
6. *Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006.*

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT -KOMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARING O'RNI

*Ibodullayeva Z.A. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Shahrisabz filiali talabasi, O'zbekiston*

***Annotatsiya.** Ta'lim tizimi jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yangilik bo'lmay qoldi. Chunki diyarli hech qaysi fan qolmadiki kompyuter texnologiyalari qo'llanmaydigan, shunday ekan ta'lim jarayonining har bir bosqichi uchun yangidan yangi dasturlar, qulay va oson texnikalar va texnologiyalar ustida ishlash muhim masalalardandir.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich ta'lim, multimedia, oila, bola, bog'cha, maktab.*

***Аннотация.** Использование информационных и коммуникационных технологий в системе образования не является чем-то новым. Поскольку почти никакая наука не остается без компьютерных технологий, важно работать над новыми программами, удобными и простыми методами и технологиями для каждого этапа образовательного процесса.*

***Ключевые слова:** образование, начальное образование, мультимедиа, семья, ребенок, детский сад, школа.*

***Annotation.** The use of information and communication technologies in the education system is nothing new. Because almost no science is left without computer technology, it is important to work on new programs, convenient and easy techniques and technologies for each stage of the educational process.*

***Keywords:** education, primary education, multimedia, family, child, kindergarten, school.*

Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklarni multimedia vositalarini joriy etish o'qitish sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan. Uzluksiz ta'lim tizimini boshlang'ich fundamenti hisoblangan Maktabgacha ta'lim muassasalaridir. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" da ham maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-texnologiyalarini joriy etish va tarbiya jaryonining samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga multimediyali texnologiyalardan foydalanish ularni yoshiga mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotda joriy etish bugunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilarga multimediali mashg'ulotlar katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'lumotlarni xotirada saqlab qolish 20% eshitish 80% ko'rish orqali amalga oshiriladi. Multimedia texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarga qog'ozda chizilgan archa rasmi ko'rsatilsa ularga oddiy psixologik ta'sir etadi, agar monitor ekranida animatsiya bilan berilgan (harakatlangan va jilolanib turgan) multimediali rasm ko'rsatilsa, ularga boshqacha psixologik ta'sir etadi. "Multimedia- bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan matn, grafika, tovush, animatsiya

va boshqalardan foydalangan holda dasturiy va texnikaviy axborotni o'quvchi va tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida elementar matematik mashg'ulotlar jarayonida kompyuter slaytlaridan, multimedialardan foydalangan holda tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish bir muncha qulayliklarni tug'diradi. Ya'ni tarbiyachining vaqti tejaladi va bir vaqtni o'zida turli qiziqarli mashg'ulotlarini olib borish imkoniyati tug'iladi. Aytaylik manitorda sonlarni qanday yozilishi na'munasi keltirilgan va bolajonlarni oldidagi doskalarda sensorli doskachalar bor, bunda bolalar manitorga qarab o'zlarini oldidagi doskada ham bajaradi. Yoki bo'lmasa audio ko'rinishidagi "Bilag'on bolajon" mashg'ulotlari bu o'z ichiga har hil mavzularni qamrab olgan bo'ladi. Bolajonlarimizga o'z navbatida boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish usul, vosita va metodlarini ham ishlab chiqish lozim.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2020-yilni "Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yili deb e'lon qilinishini tub zamirida ham olib borilayotgan islohatlarida ham axborot-texnologiyalarini o'rni katta. Multimedia vositalarini yaratish va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga qaratilgan ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, ularning ichida maktabgacha ta'lim muassasalariga yo'naltirilganlari yetarlicha emas. Bugungi kunda har bir maktabgacha ta'lim muassasalarida yetarlicha axborot-komunikatsiyalari bilan ta'minlangan deyolmaymiz. Bu esa og'riqli nuqtamiz chekka hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularni zamonaviy rekonstruksiya ishlarini olib borish maqsadga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunining 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi".

"Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi" - deb ta'kidlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarga multimediali mashg'ulotlardan foydalanganimizda bazi jihatlariga etiborimizni qaratishimiz kerak. Birinchidan, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan multimediali texnologiyalar bolalarning psixologik jixatlariga ta'siri, ikkinchidan, yoshiga (6-7 yosh) va kompyuterli mashg'ulotning davomiyligiga(15 daqiqa), uchinchidan, materialning bolalarga mosligi, xajmi (30 daqiqaga mo'ljallangan) va materialning murakkablik darajasi ga (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi) e'tiborimizni qaratishimiz joiz. 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligi shakllantirilib multimediyaga asoslangan kompyuterli ta'lim metodikasi ishlab chiqilib, ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi lozim. Tayyorlov guruhlar uchun elementar matematika mashg'ulotlari jarayonida ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinli kompyuter masalalari va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilishi lozim.

Maktabga tayyorlov davri ya'ni 6-7 yoshli bolajonlar uchun o'rganadigan bilimlari ko'payadi. Bilimlarni o'zlashtirishlari uchun esa o'z navbatida mashg'ulotlar qisqa, qiziqarli va samarali bo'lishi kerak. Ona tili va matematikadan boshlang'ich elementar ma'lumotlarni o'rgatuvchi dasturlar, audio, video va hokozo. Bunday mashg'ulotni tashkillashtirib olib borish uchun tarbiyachi o'z navbatida axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda tashkillashtiradi. Bugungi kunda axborot-texnologiyalar kirib bormagan soha yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek masofaviy ta'limni tashkil etish, ya'ni bolajonlar ayrim sabablarga ko'ra mashg'ulotda ishtirok etaolmasa yoki bir maktabgacha ta'lim muassasasi ikkinchi maktabgacha ta'lim muassasasi bilan soha yangiliklari, bilim ko'nikmalarini boyitish va o'rtoqlashishlari uchun ham zamin yaratadi. Kompyuter texnologiyalarini har sohada umumlashgan holda rivojlantirish raqamli iqtisodiyotni bir bo'g'nini tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilarga kompyuter savodxonligi bog'chalardayoq o'rgatilsa o'ylaymanki samaradorlik yuqori bo'ladi. Agarda bolajonlarimiz hozirdan bu borada bilimga ega bo'lib borsalar kelajakda kasb tanlashda ham qiynalmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashgan zamonda axborot-texnologiyalarisiz, internetsiz hayotni tasavvur etish qiyin. Chunki ular bizni og'irimizni yengil qilish bilan bir qatorda insoniyat uchun juda katta imkoniyatlarni yaratmoqda. Kampyuter texnologiyalari sohasida ham yetuk mutahasislarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, biz bu sohani rivojlanishini bevosita maktabgacha ta'lim muassasalariga bog'lashimiz kerak. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich fundament hisoblanadi, agarda uyimizni mustahkam bo'lishini xohlasak fundamentga e'tiborimizni kuchliroq qaratishimiz darkor. Vatanimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda axborot-texnologiyalar va axborot resurslarining o'rni beqiyos sanaladi. Shunday ekan biz bo'lajak dasturchi, bo'lajak blogerlarni va injenerlarni tarbiyalashimizga ishonamiz.

Adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Barkamol avlot - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori -T: Sharq, 1998- 23b.*
2. *Aripov.M Informatika va axborot texnologiyasi asoslari. -T:Universitet 2001- 36-b.*
3. *Abduqodirov L.A., Begmatova N.X. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyati (O'quv uslubiy qo'llanma) - Qarshi: Nasaf, 2011 -25-b.*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KOMPYUTER YORDAMIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Temirova G.G., Yusupova N.N. Andijon davlat universiteti magistrari,
O'zbekiston*

Annotasiya. Tezida boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter yordamida o'qitish uchun talablar, foydalanish bo'yicha tavsiyalar va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda to'garaklar o'tkazilish ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter sinflari, gigiena, ta'lim, kompyuter texnologiyalari.

Аннотация. В тезисе рассмотрены о рекомендациях по использованию компьютерного обучения учащихся начальных классов и организации кружков с использованием компьютерных технологий.

Ключевые слова: компьютерные класс, гигиена, образование, компьютер-ная технология.

Annotatsion. The thesis is written about requirements of teaching elementary school pupils with help of computer, recommendations for using it and to organise different events by using computer technologies system.

Keywords: Computer class-room, geniue, education, computer technology.

Bugungi kunda informatikaga umumiy o'rta ta'limning eng muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi, dunyoqarashning yaxlit rivojlanishini, dunyoning tizimli-axborot tuzilishida, ta'lim va aloqa ko'nikmalarini, o'quvchilarning asosiy aqliy fazilatlarini shakllantirishda bu ta'limning ustuvor vazifalarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter yordamida o'qitish uchun hozirda ikkita talab: gigiena va ta'lim bilan tartibga solinmoqda.

Zamonaviy sanitariya qonunchiligi talablariga muvofiq, bolalar uchun uning xavfsizligi to'g'risida sanitariya-epidemiologik xulosaga ega bo'lgan bunday kompyuter jihozlaridan foydalanishga ruxsat beriladi. Bolalar salomatligi uchun sanitariya-epidemiologiya xulosasi nafaqat yangi sotib olingan uskunada, balki, amalda bo'lgan uskunada ham bo'lishi kerak.

Kompyuterlar ishlaydigan xonada sun'iy va tabiiy yorug'lik bo'lishi kerak. Kompyuter sinflarini joylashtirish uchun shimolga va shimoli-sharqqa yo'naltirilgan va pardalar tashqi qoplamalar va boshqalar kabi qulay moslamalar bilan jihozlangan xonalarni tanlash kerak. Kompyuter sinflarini yer osti xonalariga joylashtirish mum-kin emas.

Kompyuter sinfiga ishlarni gigienik jihatdan to'g'ri joylashtirish juda muhimdir. Ekrandagi yorug'lik chap tomonga tushishi uchun kompyuterni tartibga solish yaxshiroqdir. Ekran yoritilganiga qaramay, darslar qorong'i joyda emas, balki yaxshi yoritilgan xonada o'tkazilishi kerak. Stollarning joylashuvi monitoring yon yuzalari orasidagi masofa kamida 1,2 m bo'lishi kerak.

Turli yoshdagi o'quvchilar uchun bitta kompyuter sinfidan foydalanganda, eng qiyin muammo yosh o'quvchilarning o'sishiga mos ravishda mebel tanlashdir. Bunday holda, ish stansiyalarini oyoq panjalari bilan jihozlash tavsiya etiladi. Ta'lim mebelining hajmi (stol va stul) bolaning bo'yigiga mos kelishi kerak. Buni quyidagicha tekshirishingiz mumkin: oyoq va orqa (va undan ham yaxshiroq va bilak) qo'llab-quvvatlanadi va ko'rish chizig'i taxminan monitoring markaziga yoki biroz yuqoriroq tushadi. Stol yoki klaviatura yuzasining yoritilishi kamida 300 lyuks, ekran esa 200 lyuksdan oshmasligi kerak. Ko'z yaxshi ko'rishi uchun kompyuter ekranidagi tasvir aniq va kontrastli bo'lishini ta'minlash kerak. Ekranni yoritish ehtimolini istisno qilish kerak, chunki, bu tasvirning kontrasti va yorqinligini pasaytiradi. Ko'zdan kompyuter ekranigacha bo'lgan masofa kamida 50 sm bo'lishi kerak, shu bilan birga, bitta bola kompyuter bilan shug'ullanishi kerak.

Sinf xonada mikroiklimning maqbul parametrlari quyidagilar: harorat - 19-21° C, nisbiy namlik - 55-62%. Har bir akademik soatdan oldin va keyin kompyuter sinflarini shamollatish kerak, bu havo sifatini yaxshilaydi. Bolalarni kompyuter bilan tanishtirish xavfsiz foydalanish qoidalarini o'rganishdan boshlanishi kerak, ular nafaqat maktabda, balki uyda ham kuzatilishi kerak.

Darslarda vizual va umumiy charchoqni oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak: 1-4 sinf o'quvchilari uchun kompyuter bilan uzluksiz mashg'ulotlarning maqbul davomiyligi 15 daqiqadan oshmasligi kerak.

Shaxsiy kompyuterlarda ishlagandan so'ng, bolalarning charchoqlarini oldini olish uchun o'tirish yoki tik turish, ekrandan uzoqda, ritmik nafas olish, ko'z harakatlarining maksimal diapazoni bo'lgan ko'zlar uchun mashqlarni bajarish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalan-gan holda to'garaklar haftasiga ikki martadan ko'p bo'lmasligi kerak. Bir darsning davomiyligi 45 daqiqadan oshmaydi. Kompyuter uchun 10-15 daqiqali uzluksiz mashg'ulotlardan so'ng, yengil jismoniy tarbiya va ko'zlar uchun gimnastika masqlari bajarilishi kerak. Shubhasiz, charchoq ko'p jihatdan kompyuter faoliyati tabiatiga bog'liq. Bolalar uchun eng zerikarli kompyuter o'yinlari bo'lib, ular asosan reaksiya tezligiga mo'ljallangan. Shuning uchun, butun dars ichida bunday o'yinlarga vaqt ajratmaslik kerak. Kompyuterda uzoq vaqt o'tirish asab tizimining haddan tashqari kuchlanishiga, uyquning buzilishiga, sog'lig'ining yomonlashishiga va ko'zning ko'rish sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu yoshdagi o'quvchilar uchun kompyuter o'yinlariga faqat dars oxirida 5 daqiqadan ortiq bo'lmagan vaqtga ruxsat beriladi. Kompyuterdan foydalangan holda to'garaklardagi mashg'ulotlar maktabda mashg'ulotlar tugaganidan keyin, 1 soat oldin tashkil etilishi kerak. Bu vaqt dam olish va ovqatlanish uchun ajratilishi kerak.

Kompyuter sinfidagi o'quvchilar uchun namunaviy qoidalar

1. Sinfga kirish va undan chiqish faqat o'qituvchining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

2. Faqat o'qituvchidan o'quvchiga, umuman jamoaga topshiriladigan ish joyini egallash talab qilinadi.

3. O'quvchilarga kompyuterni va unga ulangan qurilmalarni yoqish yoki o'chirish taqiqlanadi.

O'qituvchi Informatika darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha tavsiyalarga amal qilishi kerak.

1. Vaqtni tejash maqsadida Internetda joylashtirilgan materiallar o'qituvchi yoki metodist tomonidan maktab darslarini axborotlashtirish uchun oldindan tayyorlanishi va darsda diskda joylashtirilgan materiallar sifatida ishlatilishi mumkin.

2. Dars bolalarga kompyuter sinfida o'zini tutish qoidalarini eslatuvchi tashkiliy daqiqadan boshlanishi kerak.

3. Kompyuter sinfining jihozlari sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

4. Kompyuter stollarini tartibga solish, qurilmaning barcha qismlari va ulagichlar xona devoriga qarab turadigan tarzda amalga oshirilishi kerak.

5. Bolalarga shikast yetkazmaslik uchun elektr simlari maxsus qutilar bilan jihozlangan bo'lishi kerak, rozetkalar kompyuter stolining vertikal devorining orqasida joylashgan bo'lishi kerak.

6. Bolalarni kompyuter sinfida o'qituvchisiz qoldirish qat'iy man etiladi.

7. Kompyuter xonasida darslarni kabinet mudiri bilan birgalikda o'tkazish tavsiya etiladi.

8. Maktabning Informatika kabinetida bitta dars doirasida sinfni ikki guruhga bo'lish orqali Informatika darsida mashg'ulotlarni tashkil etishning individual shaklini amalga oshirish.

Maktab kompyuter xonasidan foydalangan holda informatikani o'qitish shaklini tanlaganida (10-12 o'quvchi va o'qituvchining ish joyi), boshlang'ich sinf o'qituvchilari va informatika o'qituvchisini 15 daqiqali qismga bo'lib informatika darsini o'tkazish tavsiya etiladi. Informatika darsining kompyuterdan tashqari qismi boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan sinfda, avval 1-guruh uchun 15 minut, so'ngra 2-guruh uchun o'tkaziladi.

Kichik o'quvchilarda kompyuter xonasidan foydalangan holda informatika fanidan darslar har qanday darslar jadvaliga binoan o'tkazilishi mumkin.

Fayl menyusining Publish Settings... bo‘limi orqali yaratilgan loyihani *.html yoki *.exe fayl kengaytmada saqlaymiz.

Yuqoridagi formani nusxalaymiz va misol ko‘rinishini o‘zgartiramiz.




3-rasm

Button tugmasining Actions-Button oynasiga quyidagilarni kiritamiz:
on (release)

```
{ a=son;if (a==3) natija = "To'g'ri topdingiz!"  
  else natija = "Afsus adashdingiz!"; }
```

Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz va Ctrl+Enter tugmalarini bosib tekshirib ko'ramiz.



4-rasm.

Shu tartibda bir nechta dasturlar yaratamiz.

Flash Shock Wave Flash formatli vektorli grafikdan foydalanishga asoslangan texnologiyadir. ShockWave Flash formati o'zida grafika, animatsiya, Action Script tili scriptlarini, bundan tashqari rastirli grafika, video, ovoz va Flashga import qilinganlarni optimallashtirilgan va siqilgan holda saqlaydi. Ushbu formatni juda ko'plab grafik paketlar va video bilan ishlovchi dasturlar qo'llab quvvatlaydi. Flash hujjatni Shock Wave Flash formatida saqlash uchun eksport yoki nashr etish (публикации) amalini bajarish zarur.

Adabiyotlar

1. Алберт Д.И., Алберт Е.Э. Самоучитель Macromedia Flash Professional 8. – СПб.: БХВ-Петербург, 2006. – 736 с.: ил.

2. Дронов В.А. Macromedia Flash Professional 8. Графика и анимация. – СПб.: БХВ-Петербург, 2006. – 656 с.: ил.

FLASH DASTURIDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARI UCHUN INGLIZ TILINI O'RGATUVCHI ELEKTRON KONTENTLAR YARATISH

Toxirov F.J., Navoiy davlat pedagogika instituti, O'zbekiston

Ushbu maqolada ingliz tili fanidan elektron axborot-ta'lim resurslari yaratish va undan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Macromedia Flash, elektron ta'lim resursi, o'rgatuvchi dastur, ingliz tili.

В статье рассматриваются методы создание и использование электронно-образовательных ресурсов по предмету английского языка.

Ключевые слова: Macromedia Flash, электронно-образовательные ресурсы, обучающие программы, английский язык.

In article is considered methods creation and use electronic-educational resource on subject of English.

The Keywords: Macromedia Flash, electronic-educational facility, training program, English.


Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi elektron kontentlarni yaratish va undan foydalanish jarayoni misollar yordamida ochib berilgan. Ushbu elektron kontentlarniyaratishda Flash dasturidan foydalanilgan.

Flash dasturini ishga tushiramiz. Ishchi sahifada olma tasvirini joylashtiramiz va uni tugma ob'ektiga aylantiramiz. Tugmani olmabutton deb nomlaymiz.


Uning ustida sichqoncha chap tugmasini tez-tez ikki marta bosamiz. Natijada Vaqt shkalasi oynasida button klavishining Up, Over, Down va Hit freymlari paydo bo'ladi. Klaviaturadan F6 klavishini uch marta bosamiz.



Over freymidagi olma tasvirini belgilab Movie Clip holatiga o'tkazamiz va uning ustida sichqoncha chap tugmasini tez-tez ikki marta bosamiz. Natijada Vaqt shkalasi oynasida Movie Clipping freymlari paydo bo'ladi. Insert Layer klavishini bosib Layer 2 ni yaratamiz va unga "Apple" so'zini yozib qo'yamiz. Bir necha marotaba F6 klavishini bosamiz. Birinchi freymda yozuv rangini och rangda, keyingi freymlarda esa to'qroq rangda yaratamiz. Oxirgi freymni belgilab F9 klavishini bosamiz va ochilgan oynaga stop() buyrug'ini kiritamiz.



Vaqt shkalasi oynasidan olmatugma yozuvini bosamiz. Down freymidagi olma tasvirini belgilab Movie Clip holatiga o'tkazamiz. Movie Clipni "1" deb nomlaymiz. Uning ustida sichqoncha chap tugmasini tez-tez ikki marta bosamiz. Vaqt shkalasi oynasida "1" ning freymlari paydo bo'ladi. File menyusidan Import – Import to Library... bandini tanlaymiz. Ochilgan oynadan kerakli ovozli faylni tanlab Открыть klavishini bosamiz.




Vaqt shkalasi oynasidan Scena 1 yozuvini tanlaymiz. Natijada Layer 1 qatlamida bitta freym paydo bo'ladi.



Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz. Ctrl+Enter tugmalarini bosib ishga tushiramiz. Sichqoncha belgisi olma ustida turganda "Apple" yozuvi paydo bo'ladi. Chap tugmasi bosilganda esa apple so'zi aytiladi.

Shu ketma-ketlikda bir nechta mevalar haqida ko'rinish tayyorlaymiz.



Fayl menyusining Publish Settings... bo'limi orqali yaratilgan loyihani *.html yoki *.exe fayl kengaytmasida saqlashimiz mumkin.

Nima uchun aynan Flash? U bizga nima beradi? Ushbu savollarga quyidagi uchta so'z orqali javob berish mumkin: universallik, kompaktilik, xavfsizlik. Flashning yana bir ustunligi o'zida matn, rasm, ovoz, animatsiya effektlarini saqlovchi yagona fayl yaratishidadir.

Adabiyotlar.

1. Алберт Д.И., Алберт Е.Э. Самоучитель Macromedia Flash Professional 8. – СПб.: БХВ-Петербург, 2006. – 736 с.: ил.

2. Дронов В.А. Macromedia Flash Professional 8. Графика и анимация. – СПб.: БХВ-Петербург, 2006. – 656 с.: ил.

БОЛАЛАР РИВОЖЛАНИШИДА КОМПЬЮТЕР ЎЙИНЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ ИЖОБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА САЛБИЙ ОҚИБАТЛАРИ

*Мингбоева Г.М. Андижон Давлат Университети, магистрант,
Ўзбекистон*

Аннотация: Мазкур мақолада болаларда ижобий хусусиятларни ривожлантиришда компьютер ўйинларининг аҳамияти ва долзарблиги кўрсатиб ўтилган. Шу билан бирга, кузатишлар натижасида ўйинларни мунтазам ўйнаш, меъёрдан ошиш оқибатлари тавсифлаб берилган.

Калит сўзлар: Тараққиёт, компьютер, телефон, электрон ўйинлар, жанр, платформер, пазллар, Геймер.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность и актуальность компьютерных игр в развитии положительных качеств у детей. Однако в результате наблюдений были описаны последствия регулярных игр, превышающих норму.

Ключевые слова: разработка, компьютер, телефон, электронные игры, жанр, платформер, пазлы, геймер.

Annotation: This article highlights the importance and relevance of computer games in the development of positive traits in children. However, as a result of the observations, the consequences of playing games regularly and exceeding the norm were described.

Keywords: Development, computer, phone, electronic games, genre, platformer, puzzles, gamer.

Ҳар бир давр ўз тараққиёти билан аҳамиятли. Бугунги жадал ривожланиб бораётган даврда бола тарбиясига эътибор қаратишимиз даркор. Болалар ривожланишига ижобий таъсир кўрсатадиган ҳар қандай усулни қўллаш фойдадан ҳоли эмас.

Кўпинча болаларимизнинг компьютер ва телефонларда ўйин ўйнашидан хавотирга тушамиз. Бу зарарли, соғлиғи учун зиён-ку, деб ўйлаймиз. Аслида, компьютер ўйинлари мутлақо зарарсиз — агар меъерини билсак, ҳаддан зиёд берилиб кетмасак, электрон ўйинларни ҳатто катталар ва болалар учун энг фойдали машғулотлар рўйхатига киритса ҳам бўлади. Агар тафаккур қилсак, хилма-хил овқатлар танимизга ҳар хил таъсирини ўтказгани каби, турли жанрлардаги компьютер ўйинлари ҳам ўзига хос таъсир кучига эга.

Хотира. Компьютер ўйинлари тарихидаги энг машҳур ўйинлардан бири - асли Италиялик Марио исмли сувсознинг саргузаштларидир. Қаҳрамонлари чарчоқ нима билмасдан тинмай зинапоялардан кўтарилиб тушувчи, платформадан платформага сакраб тушиб мукофотларни йиғувчи бунга ўхшаш ўйинлар платформерлар дейилади. Айнан платформерларни

ўйновчиларда энгил ҳаракатланиш, хотира ва стратегик режалаштириш кўникмалари кучаяди.

Тетрисга ўхшаш ўйинлар эса ёмон хотираларни унутиш, жароҳатлардан кейинги руҳий сиқилишларда, овқат ва наркотиклардан тийилишда ёрдам беради.

Кўриш қобилияти. Рочестер университети тадқиқотчилари бир нарсани аниқлашди: биринчи шахс номидан ўйналадиган шутерлар (масалан, афсонавий Call Of Duty ўйини) нарса-буюмларнинг майда деталларини ва бир қарашда фарқлаш осон бўлмаган кулранг тусининг ҳам фарқли турларини ажратиш қобилиятини ривожлантиради. Бу нимага керак? Масалан, туманли об-ҳавода машина ҳайдаётганда.

Руҳий соғломлик. Кенг истеъмолчилар доираси учун мўлжалланган казуал ўйинлар (Bejeweled, пазллар ва ҳоказо) оддийлиги ва дўстона интерфейси билан ажралиб туради. Қоидалари мураккаб эмас, мабодо ўйинчи қийналиб қолса ўйиннинг ўзи унга нима қилиш кераклигини маслаҳат беради.

Мия. Шутерлар бир пайтнинг ўзида жуда кўп иш бажарилганда диққатни жамлай олиш ва иш қобилиятини сақлаб қолишни ҳам таъминлайди. Геймерлар бир ишдан иккинчисига осон ўтиб кета оладилар. Аммо машғулотларни чўзиб юбориш ярамайди. Тадқиқотчилар ҳафтасига монитор қаршисида беш соатдан ортиқ ўтирмасликни тавсия этишади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, компьютер ўйинларни фойдали хусусиятлари билан бир қаторда меъёрни эсда тутиш лозим. Бу борада куйидаги кузатишларга асос бўлади:

- доимий равишда компьютер ўйини ўйнашни одат қилган бола ҳақиқий ҳаётни ўйиндан фарқлай олмай қолиши;
- бу аксарият ота-оналар иш кўпайиб кетганини рўқач қилиб, фарзанд тарбиясини ўз ҳолига ташлаб қўйганлигининг натижасида келиб чиқиши;
- жигарпорасини турли хавф-хатардан асраган ота-она онг-у тафаккурга келганда бепарволик қилиб, фарзандининг овуниши, бўш ўтирмаслиги учун компьютер ўйинларига рўбарў қилиш ва натижада бола компьютер ўйинларининг асирга айланиб қолиши;
- болалар компьютер ўйинларига мутлоқ тобе бўлиб, берилиб кетганидан ҳатто қорни очганини ҳам билмай, касаллик орттириб олиши;
- ортиқча миҳланиб ўтириши боланинг кўриш қобилияти пасайишига олиб келади.

Ваҳоланки, ёш болалар экранга кунлик қарашининг меъёри 45 дақиқа этиб белгиланган.

Шунинг учун ҳам фарзандларимизни баркамол этиб тарбиялашда биз тарбиячилар, ота-оналар кенг жамоатчилик ахборот коммуникация технологияларидан унумли фойдаланиши, салбий ахборот хуружларидан асраши, ижобий сифатларни шакллантиришга ёрдам беришимиз лозим.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мақтабгача таълим тизимида илгор ахборот ва педагогика технологияларини жорий этиш чора- тадбирлари тўғрисида” ги қарори. Т.,2019 йил 11 июнь, 487-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.12.06.2019 й., 09/19/487/3280-сон)

2. Ғуломов С.С., Шермухаммедов А.Т., Бегалов Б.А. Иктисодий информатика. Т.: Ўзбекистон, 1999. -500 б.

3. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. - Т.: Истеъдод, 2008. -120 б.

4. Бегматова Н.Х., Муродуллаев Б.Н., Панжсиев М.А. Информатика ва ахборот технологиялари. Услубий қўлланма. - Қарши, 2008. -128 б.

5. Арипов М. Информатика ва ахборот технологияси асослари. - Т.: Университет, 2001. -280 б.

Интернет ресурслари:

6. www.cit.org— инновацион технологиялар маркази.

7. <http://www.botik.ru/ICCC/NewPage/ICCCpageRus/> - Халқаро болалар ком-пьютер маркази лойихаси сайти.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Маматохунов Ё.А., Тургунов У. А. Андижанский государственный университет, Ўзбекистан

***Аннотация:** в данной статье рассматриваются вопросы о внедрении информационно-коммуникационных технологий в дошкольное образование, позволяющих каждому ребёнку с раннего возраста увидеть через монитор, связь человека с окружающим миром. Именно, с детства формируются основные понятия о явлениях, предметах, взаимосвязи между человеком и природой, которые в дальнейшем будут закреплены уже в школьной программе по физике. Внедрение ИКТ на Дошкольные Образовательные Учреждения эффективно повлияет на развитие, и расширению представления ребёнка. Наши экспериментальные данные показывают, что применение новых методик, внедрение помощи информационно-коммуникационных технологий, дало положительные результаты, их использование стало необходимостью современности.*

***Ключевые слова:** энергия, движение, эксперимент, инновация, информация, технология, инновационные педагогические технологии, дошкольные образовательные учреждения.*

***Annotation:** this article discusses the implementation of information and communication technologies in preschool education, allowing each child from an early age to see through a monitor the connection of a person with the world around him. Namely, from childhood, the basic concepts of phenomena, objects, the relationship between man and nature are formed, which will be further fixed in the school curriculum in physics. The introduction of ICT in Preschool Educational Institutions will effectively influence the development and expansion of the child's image. Our experimental data show that the use of new techniques, the introduction of information and communication technologies, gave positive results, their use has become a necessity of our time.*

***Keywords:** energy, movement, experiment, innovation, information, technology, innovative pedagogical technologies, Preschool Educational Institutions.*

XXI век – век информационных технологий. Любой вопрос можно забить в GOOGLE, и он вам найдёт миллион ответов. Сейчас этот вопрос очень актуален. Под словом использование информационно-коммуникационных технологий в дошкольных образовательных учреждениях мы можем понять – комплекс учебно методических материалов, технических и инструментальных средств вычислительной техники в учебном процессе.

Использование, раздача информации детям через ИКТ может повлиять на эффективную роль в будущем.

Почему-то все дети, когда слышат слово «физика» или «физические явления», меняются в лице, начинают что-то быстро вспоминать про электричество? На самом деле всё, что их окружает, природа: воздух, деревья, солнце, звёзды – и есть физика. Просто об этих явлениях очень мало информации.

Указом Президента Республики Узбекистан от 9 сентября 2017 года за номером УП-3261 «О развитии дошкольного образования и внесении в базовую структуру новых методик». На основе этого закона предлагаем внести дополнения в занятия при обучении дошкольных групп детских садов. Сравнивая некоторые зарубежные стандарты образования, в голову приходит одна мысль: «А чем мы хуже них?» и поэтому в этой статье попробуем предложить новые методы обучения детей с элементарной физикой.

С помощью ИКТ мы можем показать детям всё то, что их окружает. На сегодняшний день с помощью современных информационно-коммуникационных технологий можно позволить в доступной форме видеороликами и изобразительно преподнести физические явления, дошкольникам как материал, что соответствует их наглядно образному мышлению. Движения, звук, мультипликация надолго привлекают внимание детей и способствуют повышению интеллекта ребенка. Мы бы хотели, чтобы на этих занятиях дети получали информацию о временах года, о солнце, о звёздах, о Земле, о радуге, о дожде, ветре, энергии солнца, космосе и других физических явлениях. К примеру, о временах года можно начать с видеороликов с описанием природы, где демонстрируются особенности сезона. Почему наступают 4 времени года: весна, лето, осень и зима. Смена времён года – это неизменное явление природы. Причина его заключается в движении Земли вокруг Солнца. Мало того, что Земля вращается вокруг Солнца, она ещё вращается вокруг своей оси под углом 23,5 градуса. В результате получается наклон. Это положение сохраняется круглый год, а ось Земли всегда направлена на Полярную звезду. Когда солнечные лучи падают отвесно, прямо, Солнце жарче. Если же лучи Солнца падают на Землю под углом, то они греют земную поверхность слабее. Когда прямые лучи Солнца падают на Южное полушарие – здесь наступает лето, а в Северном – зима. Два раза в год происходит равноденствие, это когда день равен ночи: 23 сентября и 21 марта. На Крайнем Севере в Антарктике всегда стоит зима. Стоит полярная ночь. Летом туда приходит солнце, и там оно светит день и ночь. Отличие зимы от лета заключается в количестве света, а не тепла.

Солнце – единственная звезда, которой мы обязаны появлением жизни на нашей планете. Если сравнивать с Землёй она в 100 раз больше. Это можно представить так: если Земля – маленькая бусинка, то Солнце – огромный мяч. Солнце направляет свои лучи на Землю, этим самым обогревая её. Земля, нагреваясь, питает деревья, цветы и всё живое энергией.


С помощью медиа представлений можно выучить с детьми названия планет: Меркурий, Венера, Земля, Марс, Юпитер, Сатурн, Уран, Нептун. Например, можно показать плакаты с этими планетами.

Можно показать про агрегатные состояния веществ: жидкое, твердое и газообразное, взяв, к примеру, обычную воду. Вода зимой замерзает при температуре 0С, когда температура выше нуля, вода начинает таять и превращается в жидкость, а когда температура жаркая, вода в лужах испаряется и превращается в пар.

Что такое радуга? Не каждый раз встретишь её на улице. Радугу можно наблюдать только перед дождем или после дождя, и только в том случае, если одновременно с дождём сквозь тучи пробивается солнце. Но мы можем еще с помощью ИКТ изобразить радугу и все её цвета. На земле радуга выглядит как дуга - часть окружности. Вы можете увидеть радугу только тогда, когда Солнце стоит за Вами. Первым, кто объяснил природу радуги, был Аристотель. Можно легко запомнить цвета радуги: Каждый Охотник, Желает Знать, Где Сидит Фазан. Начальная буква слова и есть начало цвета.

Мы всегда были в процессе изучения интеллекта ребёнка, её освоения новых информации с малого возраста. К примеру можем привести одну из экспериментов проводившимся в старшей группе в одном из ДОУ.

В группе 30 детей. Комнаты большие, приспособлены к свободным играм детей. Каждый день у них проходят занятия по 3 раза в день не более 25 минут. А также 3 раза в неделю проводятся занятия английского и русского языков. В группе много игрушек: лего, мозаика, дидактическое лото, различные обучающие плакаты, а также уголок музыки, математики и кукольный театр. В группе имеется телевизор для просмотра обучающего материала. Один раз в месяц выходят на экскурсию за пределы своего сада.



В первом ряду показаны данные - 6 детей, которые знали, что такое Радуга. А самая меньшая часть – 2-ряд показывает 4 ребёнка, кто не участвовал в эксперименте. Наибольшей областью среди этих рядов обозначены 20 детей – 3-ряд, которые после эксперимента имели ясное понятие о Радуге.

С программой ИКТ можно показать откуда берётся дождь. Под воздействием солнечного тепла вода с поверхности озёр, рек, морей, океанов и ручьев испаряется, превращаясь в пар. Пар очень лёгкий, он поднимается вверх, в воздух, где мельчайшие водяные капельки собираются в облака и

тучи. Водяные капельки столь малы, что парят в воздухе. Если становится теплее, облако может совсем исчезнуть, раствориться: капельки испаряются и делаются невидимыми. Если же холодает, капельки сливаются – сотни тысяч их образуют одну полновесную каплю. Такие капли становятся уже слишком тяжелыми для того, чтобы продолжать своё парение в небе, они падают на землю – идёт дождь.

При помощи проектора на экране можно показывать различные фильмы о физических явлениях в природе.

Есть много книг, описывающих физические явления, с помощью этих книг можно создать мультипликацию, использовать как материал представления для детей, чтобы донести до ребёнка всю информацию, заинтересовать его, и, кто знает, может из него вырастет какой-нибудь учёный.

Исполняя Указ Президента, как применение в жизнь иностранных передовых педагогических технологий, выяснилась необходимость рассмотреть все проблемы дошкольных образовательных учреждений и найти для них решение.

В этой статье мы рассмотрели некоторые варианты для решения этих проблем и применения их в действии.

Литературы:

1. УП-3261 «О развитии дошкольного образования и внесении в базовую структуру новых методик». 9 сентября 2017 года. Тошкент.
2. Зиямухамедов Б., Зиямухамедова С. «Новая педагогическая технология». - Т. Изд. мед. лит., 2002. 118 с.
3. Омонашвили Ш.А. «Здравствуйте, дети». - М., 1986. 32 с.
4. Омонашвили Ш.А. «Как живёте, дети?». - М., 1986. 175 с.
5. Муржалилова С.С., Грошева И.В., Девятова С.В. «Olamni o'rganish» «Познаём мир». -Ташкент, 2016. 59, 44 с.
6. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://priroda-dlya-detey/> (дата обращения: 14.12.2018).
7. [Электронный ресурс]. Режим доступа: [lfly.ru solntse -dlya-detey/](http://lfly.ru/solntse-dlya-detey/) (дата обращения: 14.12.2018).

ОТА-ОНАЛАРНИ ИНТЕРАКТИВ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

*Тошбоева Н.Ж., Андижон вилояти Жалакудуқ тумани 20- МТТ мудираси,
Ўзбекистон*

Аннотация. Ушбу мақолада болаларни мактабгача таълим ташкилотларига қабул қилишда интерактив давлат хизматларидан унумли фойдаланиш кўникмасини шакллантиришнинг аҳамияти ва афзалликлар кўрсатиб ўтилган. Ягона интерактив давлат хизматлари портали қулайликлари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: интерактив, портал, регламент, электрон рақамли имзо (ЭРИ).

Аннотация. В этой статье подчеркивается важность и преимущества развития способности эффективно использовать интерактивные государственные услуги при приеме детей в дошкольные учреждения. Мы говорим об удобстве единого интерактивного портала государственных услуг.

Ключевые слова: интерактив, портал, регулирование, электронная цифровая подпись (ЭЦП).

Annotation. This article highlights the importance and benefits of developing skills in the effective use of interactive government services in the admission of children to preschool institutions. We are talking about the convenience of a single interactive public services portal.

Keywords: interactive, portal, regulations, electronic digital signature (EDS).

Бугунги кунда жахон глобаллашуви даврида яшаётган эканмиз, табиийки ахборот алмашинувига эҳтиёж сезамиз. Ҳар бир соҳада муаммоларни таҳлил қилиш ва ечиш мақсадга эришишда муҳим омил бўлади. Хусусан болаларни давлат мактабгача таълим муассасаларига расмийлаштириш, шу жумладан навбатга қўйиш фақат Давлат хизматлари марказлари ёки Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали амалга оширилмоқда.

Бу аввалгидай маҳалла, ишхонадан маълумотнома ва бошқа ҳужжатларни тўплаб, туман (шаҳар) халқ таълими бўлимлари ҳузуридаги қабул комиссиялари эшигини қоқиб юришдек оворагарчиликни йўқ бўлишига хизмат қилди.

Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 28 мартдаги 244-қарори билан Болаларни давлат мактабгача таълим муассасаларига қабул қилиш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг маъмурий регламенти тасдиқланган. Ушбу регламентга кўра, 1 апрелдан болаларни давлат мактабгача таълим

муассасалари(МТМ)га расмийлаштириш, навбатга қўйиш фақат ДХМ ёки Ягона интерактив давлат хизматлари портали (ЯИДХП) орқали амалга оширилмоқда. Чунки бундан буён давлат хизматлари босқичма-босқич электрон кўринишга ўтказилиб борилаверади.

Интерактив хизматлардан фойдаланиш кўникмасини шакллантириш бир қатор қулайликларни келтириб чиқаради:

- келгусида вақтни тежаш;
- ортиқча харажатларни олдини олиш;
- АКТ имкониятларидан унумли фойдаланиш;
- коррупцияга йўл қўймаслик;
- бюрократик тўсиқларга учрамаслик;
- психологик низоларни олдини олиш;
- идора биносига бориш, навбат кутишлар баргараф этилиши;
- сифатли хизматни таъминлашга эришилади.

Болаларни боғчага жойлаштириш тизими регламентга мувофиқ барча туман мактабгача таълим муассасалари ва болалар боғчалари ЯИДХПга уланади. Порталда болаларни МТМга қабул қилиш бўйича жисмоний шахсларнинг мурожаатлари кўриб чиқилишини кузатиб бориш тартиби жорий этилган.

Ота-оналарда йўлланмаларни олиш учун анкета топширишда икки йўл бор:

- белгиланган шаклдаги анкетани тўлдирган ҳолда Давлат хизматлари марказига мурожаат қилиш;
- Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали (my2.gov.uz) уйдан ёки ишхонадан туриб, бир зумда юбориш.

Ҳар икки ҳолатда ҳам анкета топширувчига электрон рақамли имзо (ЭРИ) керак бўлади. Чунки аризачи анкетани ЭРИ билан тасдиқлайди. ЭРИсиз бу хизматдан фойдаланиш имкони йўқ. Бу эса, электрон рақамли имзоси бўлмаган ота-оналар болаларини давлат боғчаларига жойлаштира олмаслигини билдиради. Бу ҳолатда фуқароларга енгиллик туғдириш мақсадида Давлат хизматлари марказлари аризачилар томонидан жойида ЭРИни олиш учун барча зарур шарт-шароитларни таъминлаши белгиланган.

Аксарият давлат хизматларидан масофадан туриб фойдаланиш имкони бўлгани ҳолда, аҳолининг бу тарзда ДХМларига ташрифи ҳали қилинадиган ишлар кўплигини кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ш. М. Мирзиёев. “Аҳолига давлат хизматлари кўрсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирларитўғрисида” ги 2017йил. 12 декабрдаги ПФ-5278-сон. Фармони.
2. Ш.М.Мирзиёев. “2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги 2017 й. 7 февралдаги ПФ-4947- сон. Фармони.

3. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Болаларни давлат мактабгача таълим муассасаларига қабул қилиш бўйича давлат хизматлари кўрсатишининг маъмурий регламенти тасдиқлаш тўғрисида” ги 2018 йил. 28 мартдаги 244-сон қарори. Қонун ҳужжатлари миллий базаси. 31. 03. 2018 йил.*

4. *Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006.*

5. *Бегматова Н.Х. Богча болаларининг билимини баҳолашда мультимедиа технологиясидан фойдаланиш. Қарши ДУахборотномаси. 2009.*

БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА КОМПЬЮТЕРНИ ҚЎЛЛАШ ЗАРУРИЯТИ

Иминова Б.М., Андижон шаҳри 30-умумтаълим мактаби бошланғич синф ўқитувчиси, Ботиралиева М.Ш. Андижон давлат университети талабаси, Ўзбекистон

Аннотация. Ушбу мақолада бошланғич синфларда информатика, компьютер воситаларини қўллашда бир нечта усуллар тавсия этилган. Шунингдек, информатика фанини бошқа фанлар билан интеграциялаш самараси баён этилган.

Калит сўзлар: Информатика дарслари, бошланғич таълим, ўқитиш методлари.

Аннотация. В данной статье предложены рекомендации по использованию информатики и компьютерной техники в работе в начальных классах.

Ключевые слова: Уроки информатики, начальное образование, методы преподавания.

Abstract. This article provides recommendations on the use of Information Technologies and computer in primary school

Key words: Informatics, primary education, teaching methods.

XX аср охирларида жамиятнинг барча соҳаларида интенсив ривожланиш ва унинг тадбиқлари кенг кузатилди. Бу эса ахборот технологияларини кейинги ривожланишига ва унинг янги турларини пайдо бўлишига, алоқа ва ҳисоблаш техникаларини интенсив такомиллашувига олиб келди. Автоматик лойиҳалаштиришда ва илмий ишлар олиб боришда, ишлаб чиқаришда, ташкилий бошқарувда информатика ўзининг муҳим, мустақкам ўрнини эгаллади. Ахборотлаштириш ижтимоий соҳалар фазосини эгаллади: таълим, илм-фан, маданият, соғлиқни сақлаш. Буларнинг барчаси бизнинг асримиз бошлари энергетика асридан информатика асрига ўтиш даври эканлигини кўрсатади. Бугунги кун замонавий шахсдан катта талабчанликни, мустақилликни, умумий компетентликни талаб қилади. Ҳар қандай аниқ компетентли шахс замонавий ахборот технологияларини ва коммуникацион технологияларни қўллашни билишига тўғри керади.

Мактаб таълими бу жараёндан четда қолиши мумкин эмас. Аллақачон мактабларнинг бошланғич синф ўқувчилари дарслик ва амалий топшириқларда АКТ ва компьютер техникалари ёрдамида ахборотларни қайта ишлаш ва натижа олишни уйдлашларини шакллантириш зарур.

Информатика фанини яна бир муҳим хусусиятларидан бири компьютер техникасидан дарс машғулотларни жалб этувчи, кўргазмали восита сифатида қўлланилади ва шу билан бирга индивидуал таълимни амалга ошириш ва бир ватқнинг ўзида таълимни олиб бориш, натижаларни жамлаш воситасида ҳам қўлланилди. Умумтаълим мазмуни ва структурасини такомиллаштириш

бўйича мактабларнинг бошланғич синфларида экспериментлар олиб борилиши информатика фани бошланғич синфларида ўқитилишига асос бўлди. 2-4 синфларнинг “Информатика” фани мазмуни кўриб чиқилди ва қайта ишланди. 2014 йил базавий ўқув режасида бу фан бошланғич синф “Технология” курсининг модули сифатида ўқитилиши ёки айрим ҳудудларда фақат 3-4 синфлар учун мураббийлик соати ҳисобига олиб борилиши тавсия этилди. Информатикани ўқитиш вазифасини бажариш учун учта вариантда ўқув жараёнини ташкил этилишини тавсия қиламиз.

Биринчи вариант: бошқа фанлар билан интеграциялашиш ҳисобига бир фан доирасида информатикани компьютерсиз ўқитиш. Ўқитувчи синфни қисм гуруҳларга бўлмасдан машғулотларни олиб боради.

Иккинчи вариант: Бир дарс доирасида “Информатика” фанини қўллаб компьютерли дарсларни ташкил этиш. Машғулотни бошланғич синф ўқитувчиси синфни қисм гуруҳларга бўлмасдан олиб боради.

Учинчи вариант: бир дарс доирасида информатика хонасида синфни қисм гуруҳларга бўлган ҳолатда информатика дарсини олиб бориш. Дарс машғулотини параллел равишда иккита ўқитувчи, бошланғич синф ўқитувчи ва информатика фани ўқитувчиси олиб боради.

Учинчи вариантни амалга ошириш учун биз турли технологик ёндашувларни ишлаб чиқдик. Мактабдаги компьютер синфлари ва мавжуд педагогик кадрлар ҳисобга олиниб қуйидагилар таклиф этилади:

- Қисм гуруҳларга бўлинган ҳолда бошланғич синф ўқитувчи ва информатика фани ўқитувчиси информатика хонасида параллел равишда машғулот олиб боради, 20 минутдан сўнг гуруҳлар навбати билан алмашади;

- Қисм гуруҳларга бўлинган ҳолда бошланғич синф ўқитувчи ва информатика фани ўқитувчиси турли хоналарда параллел равишда машғулот олиб боради, 20 минутдан сўнг гуруҳлар навбати билан алмашади;

- 45 минут давомида гуруҳлар бўйича дарслар блокинни олиб бориш (бу тадқиқот доирасида бўлиши ва 2 ҳафталик ўқув юклама сифатида тузиш мумкин).

Бу технологик ёндашувларнинг барчаси интеграллашган дарсларни қамраб олади, бу ерда ўқувчилар компьютерларни ўйин автомат эмаслиги, балки турли фаолият соҳаларидаги амалий вазифаларни ҳал этиш воситаси эканлигини англайдилар.

Масалан, “Информатика” ва “Меҳнат таълими” интеграллашган дарсларида “Синф мойчечак номи”ни яратишни таклиф қилинади. Ўқувчилар олдида компьютерсиз ҳолатда гуруҳ номи тайёрлаш ёки матн редактор воситасида жадвал ва матнни форматлашни қўллаган ҳолда бажариш, сўнгра иш натижаларини таққослаш, хулосалар қилиш ишлари амалга оширилади. Шунингдек тайёрланган “Мойчечак номи” синф бурчагини расмийлаштиришда, безашда қўлланиши мумкин.

“Имловий луғат” мавзуси бўйича “Информатика” ва “Она тили” дарсларини интеграллаш ўқувчилар учун жуда қизиқ бўлади. Жойлашган сўзларни алфавит тартибда жойлашни секундда бажариш (компьютерда),

сўзларни имло хатоларини тўғрилаш компьютер ёрдамида амалий равишда бажариш информатикага қизиқишни орттиради.

Шуни назарда тутиш керакки, таълимни индивидуалл ўқитиш ишида лойиҳа методини қўллаш самаралироқ бўлади. Лойиҳа мавзулари йилдан йилга ўзгариб туради, бироқ айримлари доимий равишда ўзгармайди: “Менинг исмим”, “Менинг оилам”, “Менинг ватаним”. АКТ воситаларини қўллаш билан фаолиятнинг аниқ моделларни ишлатиш ўқувчилар онгида базавий техникага оид билимлар шакллантиришга катта ёрдам беради. Ўқувчилар топшириқларни зўр қизиқиш билан онгли равишда бажарадилар.

Информатика курсини ўқитишни катта фанлараро лойиҳа кўринишида тасаввур қилиш мумкин, шунингдек уни индивидуал, гуруҳли сингари кичик лойиҳаларга бўлиш мумкин. Бир лойиҳа ишида табиий равишда кейингисига ўтиш, лойиҳа ҳажмидан келиб чиқиб бажарилиши мумкин. Масалан, “Оилам шажараси” лойиҳаси давоми сифатида табиий равишда “Менинг оилам”, сўнгра “Менинг исмим” ва бошқа.

Ўқув фаолият даврида ҳар бир ўқувчи, тўла синф ўзининг шахсий ахборот фазосига эга бўлишини шакллантиради. Бу фазо ҳар бир ўқувчи ва синфнинг ижодий-мультимедия мазмуни белгилаб беради.

Ҳозирги кунларда бошланғич синф ўқитувчиси ва информатика фани ўқитувчи турли хоналарда 20 минутли алмашиш вариантыда иш олиб бориш мумкин. Шунингдек, асосий фанлар билан интеграция амалга ошириш мумкин: инглиз тили, математика, она тили.

Бошланғич синфлардаги информатика фани ўқувчиларга замонавий ахборот воситалари, техник таъминот ва компьютер техникаси билан ишлаш билимларини шакллантиришдан иборат. Шундай қилиб, биз қуйидаги хулоса ва таклифларга келишимиз мумкин:

1. Бошланғич синфларда информатика фанини ўрганишни ўқувчилар ахборотларни ахборот моделлари кўринишида кодлаш ва тасаввур қилишни ўргатишдан бошлаш керак: матн, расм, диаграмма, жадваллар.
2. Информатикани ўрганишда бошланғич синф фанлари билан ҳамкорликда дарслар олиб бориш, параллел равишда дарсларни ташкил этиш ва улар ёрдамида билимларни умумлаштириш.
3. Информатика фани ўзининг атрофидаги абстракт тушунчаларига қарамасдан бошланғич синф ўқувчилари билимларни аниқ тушунчалар ва мазмун билан тўлдирилиши керак.
4. Информатика фани таълимнинг барча босқичларида узлуксиз ўқитилиши зарур.

Мактабларда компьютерни қўллаш дарсларида гигиеник талабларни бажаришга алоҳида эътибор қаратиш керак:

- танланган ёндашувга боғлиқ бўлмаган равишда компьютер билан ишлаш умумий вақти 15 минутдан ошмаслиги керак;

- ҳар бир дарс давомида индивидуал ва фронтал режим фаолиятида компьютер техникаларини қўлланилади;

- ҳафтанинг бир кунда юкори синф ўқувчилари яратган техника хавфсизлиги қоидалари презентациясини компьютер синф хоналарида ишлаш инструкцияси сифатида қўйиб берилади;

- турли ёшдаги ўқувчилар учун хоналардаги мебель муаммосини ҳал этиш учун баландликлари соналандиган креслолар билан жиҳозлаш;


- дарс жадвали асосида информатика машғулотларининг ихтиёрий дарсларни компьютер синфларида компьютерларни қўллаб олиб борилиши мумкин;

- дарсларда кўзни ва умумий чарчоқни олдини олиш учун профилактика сифатида жисмоний тарбия тизими ва кўз учун машқлар ўтказилиши, бу жараён ўйин тарзида ташкилланиши тавсия этилади.

Хулоса қилиб айтганда, бошланғич синфларда информатика фани ўқитилиши зарурият ва эҳтиёждир. Информатика фани болани ўқишга қизишини орттиради, билим самарадорлигига яхши таъсир этади ва болани ҳар томонлама ривожланишига имкон беради. Компьютер дастурлари ўқувчиларини билим, қобилиятларини маданий равишда шаклланишига имкон беради ва ривожлантирувчи фаолиятга жалб қилади. Компьютер техникаси бошланғич синф ўқувчиларига кўрғазмалар равишда ижодий топшириқларни ҳал этиш ва билишга оид билимларни эгаллашларига ёрдам беради.

Ҳозирги кунда ҳеч кимга сир эмаски, компьютер техникаси билим беришнинг янги усули сифатида қўлланилмоқда ва у болани ривожланишига, янги билимларини сифатли ўзлаштиришига энг қулай воситаси сифатида қаралмоқда. Бу усул ўқувчиларни ўқишга қизиқишларини орттиришига, янги ахборотларни мустақил равишда қидириши натижасида олинган янги билимлар уларнинг интеллектуал фаолиятларини ривожлантиради ва шахс мустақиллигини тарбиялайди.

Илова



"Реал ва виртуал лойиҳалаштириш" дарси

TABLE OF CONTENTS

SECTION IV. THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

| | |
|--|----|
| Медатов А.А., Махкамов А.Ш. Мактабгача таълим муассасаси тарбияланувчиларининг билиш жараёнини ривожлантиришда АКТ ларидан фойдаланиш | 3 |
| Бегматова Н.Х., Содиқова У.У. Компьютерли дидактик ўйинлардан фойдаланиш имкониятлари..... | 6 |
| Мирзаахмедов М.К., Абдувалиев А.А. Информационно-коммуникационные технологии в дошкольном образовательном учреждении..... | 10 |
| Temirova G.G. О'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari..... | 17 |
| Fayziyeva D.H., Xalikova U.M. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun animatsion roliklar yaratishda CrazyTalk dasturidan foydalanish..... | 20 |
| Qambarova R.I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari va o'ziga xos hususiyatlari..... | 23 |
| Iminova D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning muammo va yechimlari..... | 26 |
| Содиқова О.А. Мактабгача таълим тизимида масофавий таълимни ривожлантиришнинг илмий педагогик асослари..... | 29 |
| Ibodullayeva Zarina Akramovna Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot -kommunikatsiya texnologiyalaring o'rni..... | 32 |
| Temirova G.G., Yusupova N.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter yordamida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari..... | 35 |
| Ahmadaliyev B.B., Maxkamov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarning nutqini rivojlantirish..... | 39 |
| Abduraxmonova S. Sh. Maktabgacha ta'lim tizimida multimediya texnologiyalarini rivojlantirishning ilmiy – nazariy asoslari..... | 42 |
| Икромова М.Н. Мактабгача ёшдаги болаларни дастурлашга тайёрлашнинг айрим жиҳатлари..... | 45 |
| Xodjayeva S.Q. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachisining multimediya vositalaridan foydalanish ahamiyati va afzalligi..... | 50 |
| Absobirov S.Q. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining matematik bilimlarini rivojlantiruvchi elektron kontentlar yaratish..... | 53 |
| Toxirov F.J. | |

| | |
|---|----|
| Flash dasturida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun ingliz tilini o'rgatuvchi elektron kontentlar yaratish..... | 56 |
| Минзбоева Г.М. | |
| Болалар ривожланишида компьютер ўйинларидан фойдаланишнинг ижобий хусусиятлари ва салбий оқибатлари..... | 59 |
| Маматохунов Ё.А., Тургунов У.А. | |
| Роль информационно-коммуникационных технологий в дошкольных образовательных учреждениях..... | 62 |
| Тошбоева Н.Ж | |
| Ота-оналарни интерактив давлат хизматларидан фойдаланиш кўникмасини шакллантиришнинг аҳамияти..... | 66 |
| Иминова Б.М | |
| Бошланғич синфларда компьютерни қўллаш зарурияти | 69 |